

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 3-iyun chorshanba №22(9607)

Ahmadali ASQAROV:

TIRNOQ OSTIDAN KIR QIDIRISHNI TO'XTATAYLIK!



2-4-betlar

**O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?**



Sinfidagi o'quvchilar sonini kamaytirish kerak. Bir sinfda 20 nafar o'quvchi bo'lsa, yetarli. O'zbekiston kelajagi uchun yoshlar bilimli bo'lishi kerak.

Norqo'chqor XOLMURODOV

Maktab bitiruvchilarining necha foizi OTMlarga kirganini monitoring qilamiz-u, lekin OTM bitiruvchilarining necha foizi ishli yoki ishsiz ekani bilan qiziqmaymiz. Fikrimcha, yaqin yillarda oliy ma'lumotli ishsizlar soni keskin ko'payib ketadiyov.

Bozorboy QOSIMOV

Ta'lim qachon sifatli bo'ladi? Qachonki, sinflarda o'quvchilar soni kam bo'lsa, maktablar bir smenada ishlasa va o'qituvchi darsdan keyin o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlay olsa!

Ra'no XUDOYQULOVA

Hozirgi zamon o'quvchilari o'qituvchining saviyasiga qarab muomala qiladi.

Sherali TURSUNBOYEV

KIR QIDIRISHNI TO‘XTATAYLIK!

dasturulamali emasmi? Bu so‘zlarning zaminida juda katta ma’naviyat va davlat dasturulamali yotadi. Azamat Ziyo esa bularni inkor etadi. Azamat Ziyoning bu da’vosini mustaqillik sharoitida tarixiy haqiqatni soxtalashtirish desa bo‘ladi. Biz akademik tarixchi – arxeologlar, etnograflar o‘z burchimizni I.Karimov davrida ham, hozir ham dadil birlamchi manbalar asosida bajarib kelmoqdamiz.

Usmonbek! Maqolangizda bizning adresimizga tosh otishdan tashqari, O‘zbekiston olimlari tomonidan mustaqillik yillarida tarixga yangicha yondashuvlar asosida yaratilgan asarlar haqida ham ro‘yi-rost yozibsiz. Buning uchun rahmat, biroz bo‘lsa-da, olimlik burchingizni unutmabsiz. Men ular haqida to‘xtalmoqchi emasman. Ammo siz ko‘targan bir masalaga to‘xtalmoqchi-man.

U ham bo‘lsa, ta’kidlaganingizdek, katta siyosiy va mafkuraviy masala. Masalan, qardosh Tojikiston Respublikasi tarixchilari Somoniylarni tojiklarga mansub sulola deb da’vo qiladilar. Azamat Ziyo “Adabiyot gazetasi”dagi maqolasida Somoniylarni turkiy sulolalar qatorida sanab o‘tadi, lekin “O‘zbek davlatchiligi tarixi” kitobida esa(2000-yilda nashr etilgan) “Somoniylarning qaysi etnosga taalluqli ekani ham ma’lum emas”, deb yozadi (92-bet). Kitobxon-ga esa bunday mujmal qarashning tub mohiyatini ochmaydi. Akademik Abdulahad Muhammadjonovning “O‘zbekiston tarixi” kitobida(2000-yilda chop etilgan) esa bu muammo chetlab o‘tilgan. Akademik Karim Shoniyozov ham “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” asarida(2001-yil) Somoniylarning kelib chiqishi haqida aniq bir to‘xtamga kelmagan. Siz ana shularga asoslanib biz tarixchilarni ayblab, “bu masalaga qachon aniqlik kiritasizlar?” deysiz!.. “Tojiklar esa allaqachon Somoniylar sulolasini o‘ziniki qilib, bu masalada ko‘p amaliy va ilmiy-ma’rifiy ishlarni qilib ulgurdi. Masalan, Tojikiston Respublikasi Somoniylar davlatining 1000 yilligini nishonlashga, Ismoil Somoniya ulkan haykal o‘rnatishga, milliy valyutasini “somon” deb atashga, E.Rahmon esa hatto Londonda “Таджики в зеркале истории. От Арийцев до Саманидов” nomli kitobini chiqarishga ulgurdi”.

Usmonbek janoblari! Bu masalaga allaqachon aniqlik kiritilgan. Buni nafaqat siz, hatto “O‘zbekiston tarixi”(Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha, T.2022) kitobining men boshliq tahrir hay’ati ham yaxshi biladi. Ehtimol Tarix instituti direktori Azamat Ziyo masalaning nozik tomonlarini o‘ylab, o‘zini bilmaslikka olsa kerakki, kitobda ayrim bahsli masalalar ham aniqlik kiritilmay ketib qolgan. Chunki Yurtboshimiz min-taqada ahillik bo‘lishini istab siyosat olib bormoqdalar. Agar xabaringiz bo‘lmasa, endi meni Azamat Ziyo bilan birgalikda eshiting: Aslida mazkur masala bilan maxsus shug‘ullangan olim arabshunos Shamsiddin Kamol bo‘lib, Somoniylarning etnik kelib chiqishi turk o‘g‘uzlariga borib taqalishini ilmiy isbotlagan. Darhaqiqat, Eron sosoniylari xizmatida bo‘lgan turk Bahrom Chubin VI asrning 80-yillarida aslzoda turk g‘ulomlari-

ning Buxoro amiriga qarshi ko‘tarilgan “Abruy” qo‘zg‘olonida asir tushib, Buxoro amirligi tomonidan Sosoniylarga sotib yuboriladi. Lekin Bahrom Chubin o‘zining harbiy salohiyatiga ko‘ra Sosoniylarda harbiy vazir darajasiga ko‘tarilib, davlat oldidagi buyuk xizmatlari uchun Balx bilan Termiz oralig‘idagi mulkning iqtodoriga aylanadi. Tehronda davlat ishlari bilan o‘ta band Bahrom Chubin Iqto mulkini boshqarish uchun Axsikentning shimolida(hozirgi Naman-gan viloyati) yashovchi qabiladoshi Arkuk ismli qabila sardorini urug‘-aymog‘i bilan Balxga ko‘chirib keltiradi. O‘sha kezlarda tub joyli aholi forsiy tilli bo‘lib, ikki-uch avlod o‘tgach, mahalliy aholi til muhitida Arkuk-Somonxudot avlodlari ham forsiylashib ketadilar. Etnik kelib chiqishi turk o‘g‘uzlaridan bo‘lgan Somonxudot avlodlariga(Asad va uning o‘g‘illari: Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyosga) xalifalikning sharqiy viloyat-lar noibi Ma‘mun ibn Xorun ar-Rashid sadoqatli xizmatlari uchun juda katta iqtisodiy va siyosiy erkinliklar beradi.

Shunday qilib, Movarounnahr va Xurosonda mahalliy aslzodalar tashab-busi bilan markazlashgan feodal davlat, ya’ni Somoniylar davlati tashkil topadi. Bu davlat diniy tomondan xalifalikka qaram, iqtisodiy jihatdan o‘ziga mustaqil davlat bo‘lgan. Xalifalikka o‘z vaqti-da soliq to‘lab turgan. Bu davlat IX–X asrlarda sulolaviy Somoniylar davlati deb yuritildi. Uning davlat tili fors tili bo‘lgani bois, Bartold va Bregel hamda ularning izdoshlari – tojikistonlik tarix-chilar Somoniylar davlatini Tojiklar davlati deb ataydilar. Aslida unday emas. Somoniylar birinchi navbatda o‘zbek va tojiklar, qolaversa, O‘rta Osiyoning bar-cha turkiy va forsiy tilli xalqlariga tegishli davlat. Uning hududi avval Turonzamin, ilk o‘rta asrlardan boshlab esa Turkis-ton deb atalgan. Bu degani Somoniylar tojiklar davlati degani emas. Uning dav-lat tili forsiy bo‘lsa-da, o‘sha kezlarda fan tili arabiy edi. Turkiston atalmish bu davlat xalqining aksariyat ko‘pchiligi jonli turkiy tilda so‘zlashganlar. Uning ma’lum bir hududida sug‘diy va ayrim shahar aholisi forsiyda so‘zlashganlar. Aslida sug‘diy, buxtariy va xorazmiy tillari ham sof forsiy til emas. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida bor haqiqatni yozgan. Movarounnahrga forsiy tilni janubiy Erondan Ahamoniylar olib kelgan.

O‘z davrida akademik Bobojon G‘afurov Moskvadagi Sharqshunoslik institutining direktori bo‘lib ishlagan kezlari institutning sharqshunos-tilshu-noslaridan sug‘diy tilni forsiyning proto-tipi qilib berishni talab qilganda, “olim-lar bu tarixni soxtalashtirish bo‘ladi”, deb ko‘nmaganlar.

2023-yili Moskvada chop etilgan Sharif Mahkamovning “Узбекистан. Полная история страны” kitobida quyi-dagilar yozilgan:

“Некоторые историки называют Саманидов династией таджикских правителей, но правильней будет называть их иранской правящей династией, поскольку формирование таджикского этноса в VIII–IX веках

еще не было завершено. С таким же успехом можно называть Саманидов афганскими правителями, отталкиваясь от того, что их предок Саман-худат предположительно был родом из окрестностей Балха”(11-бет).

Sharif Mahkamovdan iqtibosning boshlang‘ich qismi tarixiy haqiqatni eslatadi. Somonxudot kelib chiqishi ji-hatidan “Balxning atrof qishloqlarida tug‘ilgan” degan xulosasi esa tarixiy haqiqatga ziddir. Yuqorida ta’kidlagani-mizdek, Somonxudot asli o‘g‘uz turk-laridandir. Uning avlodlari 3-4 avlod o‘tgach forsiylashgan.

Azamat Ziyo qila olmagan ishni o‘z vaqtida arabshunos Shamsiddin Kamol bajardi. O‘sha kezlari Shamsiddin Kamol men rahbarlik qilayotgan “Vatan tarixi” kafedrasida a’zosi edi. U kafedrada tashkil etilgan seminarida Somoniylarning etnik kelib chiqishi turkiy o‘g‘uzlarga borib taqalishi haqida ma’ruza qilib, shu ma-salada chuqurroq izlanishlar olib borish uchun ijodiy imkoniyat so‘radi. Kafedra mudiri sifatida unga ijodiy erkinliklar yaratish mas’uliyatini o‘z zimmamga olib, tegishli sharoit yaratib berdim. U esa bir o‘quv yili davomida topshiriqni uddalab, “Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX–X веках” nomli monografiyasini tayyorladi. Uning har bobi kafedrada muhokama qilib borildi. Lekin O‘zbeki-sonda uni chop etishga ruxsat bo‘lmadi. Nihoyat 2011-yili Germaniyada chop etildi, so‘ng 2018-yilda qisqartirilgan varianti rus tilida Nizomiy nomidagi Tashkent davlat pedagogika universite-ti Tarix fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida Z.Ilhomov bilan ham-mualliflikda chop etildi.

Quyida ushbu o‘quv qo‘llanmaning annotatsiyasini o‘zbek tilida gazetxon-larga havola etaman.

IX – X ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDAN (Somoniylar tarixi bo‘yicha yangi tadqiqotlar)

O‘rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX – X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar islom dunyosining yirik siyosiy, madaniy va ilmiy markaz-lariga aylandi, mahalliy xalqlarning islom davridagi davlatchiligi asoslari yaratildi [Frye 1993: 136 – 161; Bosvort 1971: 145 – 147; Negmatov 1977]. Yoz-ma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davr-dagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Lekin bu sulolaning kelib chiqishi haqi-da juda ham kam ma’lumotlar saqlanib qolgan. Somoniylarning asl kelib chi-qishi hali noma’lum bo‘lsa ham [Frye 1993: 136], ko‘pchilik tadqiqotchilar orasida ularning kelib chiqishi fors [Bosworth 1995: 1025; Beleniskiy 1999: 19 – 24; Browne 1997: 207, 352; Len-Pul 1899: 107] va Sosoniylar sulolasi bilan bog‘liq [az-Zirikli I: 290; Gafu-rov 1958: 51 – 55; Gafurov 1957: 2 – 3; Mercil 1994: 253] degan xato fikr hukm

surib kelmoqda. Shuning uchun Somoni-ylar sulolasining haqiqiy kelib chiqishini aniqlash hozirgi kunda tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir, uni hal etish uchun esa oldingidan ham kengroq doiradagi manbalarni jalb et-gan holda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda So-moniylar, ularning kelib chiqishi, dav-latchiligi, madaniyati va ular bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa bir qator masa-lalarga bag‘ishlangan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu tad-qiqotlarning natijalari nafaqat O‘zbekis-tonda [Kamoliddin 2004: 13 – 15; 2005: 231 – 241; 2006: 14 – 17; 15 – 18; 14 – 18; 2008: 37 – 41; 2009: 22 – 31; 2011: 66 – 74], balki MDH davlatlari-da [Kamoliddin 2008: 13 – 21; 2009: 49 – 60; Kamoliddin 2010: 64 – 82] va chet ellarda [Kamoliddin 2006: 45 – 71; Kamoliddin 2008: 43 – 70; 2009: 113 – 119], shuningdek, Internet tarmoqlari-da ham nashr etildi [Kamoliddin 2005: www; 2006: www; Kamoliddin 2005: www; 2006: www; 2008: www]. Undan tashqari, bu masala bo‘yicha bir qator xalqaro ilmiy konferensiyalarda maxsus ma’ruzalar o‘qildi va ularda ilgari su-rilgan fikrlar mutaxassislar davrasida muhokama etildi [Kamoliddin 2006: 206 – 209; 2007: 299 – 300; 2009: 6 – 7; Kamoliddin 2008: 77; 2010]. 2011-yili Somoniylar haqidagi monografiya Ger-maniyada ingliz tilida nashr etildi [Ka-moliddin 2011]. Bu kitobning dunyodagi eng nufuzli ilmiy nashriyotlardan birida ingliz tilida nashr etilishi, uning jahon ilm-fani talablariga javob berishi va O‘rta Osiyo tarixi, xususan, Somoniylar tarixi sohasida yozilgan jiddiy ilmiy tad-qiqot ekanligidan dalolat beradi.

Bu masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Somoni-y-larning ajdodi Bahrom Chubin qadimgi Arshakiylar konfederatsiyasi tarkibi-ga kirgan qadimgi turkiy qabila yoki urug‘ga mansub bo‘lgan. Eroniy bo‘lma-gan boshqa qo‘shni xalqlarning vakillari singari u ham Sosoniylarning harbiy xiz-matida bo‘lgan. Bahrom Chubin Xuro-son marzboni lavozimida bo‘lgan vaqtda Balx va uning atroflarida unga tegishli yerlar bo‘lgan. Bu yerlar arablar bosqi-niga qadar mavjud bo‘lib, uning avlod-lariga qarashli bo‘lgan va Chubin yoki Chubinobod deb atalgan [Kamoliddin 2008: 37 – 41].

590-yilda Bahrom Chubin turklar bilan bitim tuzib, Balxda Sosoniylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan va poytaxt Ktesifonga yurish qilib, uni egallagan. U hokimiyatni bir yil ushlab turgan, keyin esa Vizantiya qo‘shinlaridan mag‘lubi-yatga uchrab, turklar oldiga qochish-ga majbur bo‘lgan. U To‘xoristonning birinchi turk yabg‘usi, keyin esa Ko‘k turk xoqoni El-tegin(Parmuda)ning do‘sti va maslahatchisiga aylanib, uning qiziga uylangan. Uning oxirgi yasha-gan joyi Farg‘onadagi qadimgi Qubo (hozirgi Quva) shahri bo‘lib, uning turk malikasidan bo‘lgan avlodlari, ya’ni Somoniylarning islomdan oldingi ajdod-lari ham o‘sha yerda yashaganlar.

(Davomi 4-5-betlarda.)



TIRNOQ OSTIDAN KIR QIDIRISHNI

Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Turklar 618-yilda eftaliylarni uzil-kesil yengib, To'xoristonni egallagandan keyin ulardan ba'zilar Balxga qaytadilar va Bahrom Chubinga qarashli bo'lgan yerlarini qaytarib oladilar. Jabboxon va Somon-xudot Bahrom Chubinning to'rtinchi va beshinchi pog'onadagi avlodlari bo'lgan [Kamoliddin 2008: 85 – 86].

Manbalarda Somon-xudotning kelib chiqishi turklardan bo'lganligiga ishora qiluvchi bir necha ma'lumotlar mavjud. Ulardan faqat ba'zilar ishonchli deb qabul qilinishi mumkin – al-Muqaddasiy(X asr)ning Somon (سامان) qishlog'i turklari haqidagi ma'lumoti [al-Muqaddasi: 358], as-Sam'oniyy (XII asr)-ning Balx yaqinidagi Jabboxon qishlog'i haqidagi ma'lumoti[as-Sam'oniyy III: 171] va shu ismli shaxsning X–XII asrlarga oid manbalarda Somoniylarning ajdodi sifatida qayd etilishi, “Fazoil-i Balx” (XIII asr)da Somoniylar va Barmakiylarning Jabboxon qishlog'idan kelib chiqqanligi haqidagi ma'lumoti [al-Balxiy: 19, 37] va uni tasdiqlovchi Mahmud ibn Vali (XVII)ning “Bahr al-asror” asaridagi ma'lumotlar [Mahmud ibn Vali: 315a]. So'nggi o'rta asrlarga oid manbalar(Rashid ad-Din, al-Loriy, Mustavfiy-i Qazvinii, Xondamir, al-Usturlobiyy, “Sa'diya” asari, Ismoil Somoniy vaqfnomasi)da keltirilgan Somon-xudotning otasi, Somon-yabg'u, Arquq va Kokuldor haqidagi ma'lumotlar haqiqatda yuz bergan voqealar haqida axborot beradi [Rashid ad-Din 1987: 94; al-Loriy: 234; Mustawfi-i Qazwini: 379; Xondamir II: 352; Semenov 1955: 3 – 11]. Mansur ibn Nuh chiqargan kumush tangada Tun yabg'u-xoqon yoki Jabboxonning surati tasvirlanganligi esa bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi[Kamoliddin 2009: 113 – 119].

Demak, mavjud ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, Somon-xudot Sosoniylar sulolasiga tegishli bo'lgan fors oilasiga mansub[Gafurov 1958: 51 – 55; Negmatov 1977: 18; Mercil 1994: 253] bo'lmagan, balki o'z bobokaloni Bahrom Chubin singari o'g'uz turklari-dan kelib chiqqan.

Bahrom Chubin Xurosonning eroniy-lashgan qadimgi o'g'uz turklari ichidan yetishib chiqqan bo'lsa, Somon-xudot uning Ko'k turk xoqonlari oilasining malikasi bilan tuzgan nikohidan bo'lgan avlodlaridan. Uning onasi tarafidagi qarindoshlari Farg'onadagi Qubo shahrida istiqomat qilgan. Shuning uchun manbalarda Bahrom Chubin avlodlari islomgacha Movarounnahr podshohlari bo'lgan deb ko'rsatilgan[Mustawfi-i Qazwini: 379]. Chunki faqat oliy turk xoqonlari oilasiga mansub podshohlar butun Movarounnahrda hukm surgan. Uning otasi Jabboxon islomgacha Balx hokimi bo'lib, unvoni yabg'u (jabg'u), ismi esa To'g'ru'l bo'lgan [al-Loriy: 234a]. U Balxning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Jabboxon nomli qal'ada istiqomat qilib, uning o'g'li Somon uchun ham alohida mahalla qurdirgan [Mahmud ibn Vali: 315a].

Jabboxon Navbahor nomli ibodatxona va xonaqohning asoschisi bo'lib, shu ibodatxonaning kohinlari Barmakiylar uning avlodlari bo'lgan. Arab-

lar 90 –709-yilda Balx shahrini ishg'ol qilib, Navbahor ibodatxonasini vayron qilgandan keyin Jabboxon Turkistonga ketib, hali turklarga qarashli bo'lgan Shosh shahrida hokimiyatni qo'lga oladi [Mustawfi-i Qazwini: 379], lekin 134/751-52-yildagi Talas jangidan keyin bu shahar ham arablarga tobe bo'ladi [Bolshakov 1980: 132 – 136].

Somon-xudot Marvga Farg'onadan kelib, Tohir ibn al-Husayn yordamida islom dinini qabul qiladi. Islom dinini qabul qilgunga qadar u otasi Jabboxon va Barmakiylar singari buddaviy yoki moniylik diniga e'tiqod qilgan [Kamoliddin 2008: 13 – 21]. Uning turkcha ismi Arquq, buddaviy ismi esa Somon bo'lgan [Semenov 1955: 3 – 4; Kamoliddin 2011: 66 – 74]. Turklarning odatiga ko'ra, u sochini kokil qilib o'rab yurgan, shuning uchun xurosonliklar unga Kokuldor deb laqab qo'yg'alar [Arshavskaya, Rtveladze, Xakimov 1982: 86 – 88]. Otasi Jabboxon singari u ham yabg'u (jabg'u) deb atalgan bo'lib, bu unvon To'xoriston turk hukmdorlarining sulolaviy unvoni bo'lgan [Rashid ad-Din 1987: 94]. Somon-xudot(Somon-yabg'u) To'xoristonning turli viloyatlari(Termiz, Xuttalon, Samangan)da bir nechta qishloqlarga asos solib, bu qishloqlar uning ismi bilan Somon deb atalgan. Ehtimol u oddiy qishloqlarga emas, balki bobokaloni El-tegin(Parmuda) va otasi Jabboxon singari buddaviy ibodatxona va xonaqohlarga asos solgan.

Somon-xudot o'zining ajdodlari singari O'rta Osiyoning shaharlarda yashovchi o'troq turklariga mansub bo'lgan. O'rta Osiyoning turkiy tilda so'zlashgan qadimgi o'troq va shahar aholisining avlodlari XX asr boshlarida “sart” deb atalgan. O'zlarining madaniyatiga ko'ra, ular ko'chmanchi turkiy xalqlardan ham eroniy xalqlardan ham, keskin farq qilganlar [Kamoliddin 2004: 63 – 64]. 1924-yilda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy bo'linishdan keyin ular hozirgi o'zbek xalqining etno-madaniy asosini tashkil etdilar [Kamoliddin 2004: 34 – 41]. Demak, Somoniylar sulolasining O'rta Osiyoda hukm surgan davri o'zbek xalqi davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida baholanishi lozim.

Professor Shamsiddin Kamoliddin.

Hatto aspiranturada o'qib yurgan vaqti eronshunoslar muhitida tarbiya topgan professor M.Is'hoqov ham turk birodarimiz Aydin Ustaning “**Ilk musulmon turk davlati. Somoniylar. 874–1005(T.2025)**” nomli kitobiga yozgan “**Taqdim**”ida shunday deydi: “**Tadqiqotning muhimligi shundaki, unda turkiy davlatchilik tarixining muammoli bo'g'ini bo'lmish Somoniylar davlatini boshqargan sulolaning kelib chiqishi turkiy qavmlarga, asli ibtidosi Ashina avlodlariga borib taqalishi ishonchli tarzda isbotlangan**”(3-bet).

Usmonbekning Azamat Ziyoga e'tirozlaridan yana biri, o'zga davlat olimlari chop ettirgan “100 buyuk shaxs” rukni ostidagi ro'yxatda Amir Temur shaxsi haqida bir og'iz so'z yo'q”, deb gina qilamiz-u,“nega o'zimiz “Turon-

ning 100 buyuk shaxsi” degan to'plam chiqarmadik. 2016-yilgacha o'tgan 25 yil ichida shunday ish qilganimizda, birov qo'limizni chopib tashlarmidi? Yo'q, albatta. Men bu xatolarimizning tub sababi – mablag' bo'lmaganida emas, “alloma”larimizning akademizm kasalligiga chalinganida deb hisoblayman”, deydi.

Yo'q, janob Usmonbek! Milliy akademiyamiz tarkibida ishlayotgan har bir o'zbek olimining davlat tomonidan topshirilgan ilmiy tematikasi bor. Ular davlat buyurtmasi bilan shug'ullanmay, siz o'ylagan ishga qo'l ura olmaydi. Siz esa bilimdon allomalarimizni “akademizm kasalligiga chalinganlikda” nohaq ayblaysiz.

Siz maqolangizda kommunistlarning rahnamosi Karl Marks o'g'li Fransisko vafot etganida tobut sotib olish uchun puli bo'lmay, mayit 3 kun ko'milmay qolganida yoki kiyimlarini lombardga qo'yib, qishda hatto oyoq kiyimsiz tashqariga chiqolmay qolgan chog'ida ham o'z g'oyalaridan voz kechmagan. O'sha lombard egasi Karl Marks kiyimlarining tagiga “Kapital egasining kapitali” (“Kapital” asari nazarda tutilmoqda) deb haqoratimiz iboralarni yozib qo'yganida ham Karl Marks bunga chidaganligi haqida olimlarning o'z kasbi bo'yicha fidoyiligi haqida yaxshi misol keltiribsiz. Ha, akademizm olimlarining aksariyati Karl Marksdek o'z ishiga fidoyidir.

Usmonbek! Siz yana bir ibratona misol keltiribsiz, ya'ni Karl Marksning qaynog'asi Prussiya qirolligining ichki ishlar vaziri bo'lgan, binobarin u shohona yashash imkoniyatiga ega edi. Buning uchun u Prussiya monarxiyasini ko'klarga ko'tarib maqtashi kerak edi, biroq uning kapital haqidagi g'oyalari Prussiya monarxiyasiga yoqmagan. Lekin u o'z g'oyalariga sodiq qoldi. Hech kimdan o'pkalamadi, deb to'g'ri yozgansiz. Biz akademiklar ham shunday toifadagi olimlardanmiz. To'g'ri, ular ichida ham laganbardorlar yo'q emas. Buni men inkor etmayman.

Usmonbek! O'zbek xalqi boshidan kechirgan renessans (uyg'onish, keskin rivojlanish, tub o'zgarish) haqidagi tasavvuringizda ko'pchilik qatori chalkashliklar bor. Siz Azamat Ziyoning 2000-yilda chop etilgan “O'zbek davlatchiligi tarixi” kitobiga iqtibos qilib, “Renessans deyilganida, aksariyat XV–XVI asrlardagi Yevropadagi yuksalishni anglaydi. Vaholanki, arablarning dastlabki vaqtdagi siyosatlarini natijasida anchayin xaroblikka yuz tutgan mamlakatimiz va umuman Sharq mamlakatlari IX–X asrlarga kelib fan va madaniyatda yuksaklikka erishganlar, ya'ni jamiyat yana bir bor uyg'ongan. Bu uyg'onishning nafaqat bizning, balki batamom kishilik taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida fikr qilinsa, u holda insoniyat tarixida birinchi uyg'onish davri mohiyat e'tibori bilan bizning mamlakatimiz va mintaqamizda ro'y berdi. Va bu yuksalish biz orqali butun bashariyatga tegishlidir”(102-103-betlar), deb yozibdi. Bunda juz'iy xato bor deysiz-u, o'zingiz ham xatolikka yo'l qo'ygansiz.

Bu o'rinda ikki jihatga e'tibor qaratamiz. Birinchisi – bu hodisa IX–X asrlarni emas, IX–XII asrlarni o'z ichiga

oladi. Ikkinchisi, Azamat Ziyo kitobida yurtimizdagi Birinchi Uyg'onish davri-ning “Musulmon uyg'onish davri” deb nomlanishi tarixiy haqiqatga zid ekanligi haqida lom-mim demagan. Temuriylar davri madaniyati, ilm-fani 2-Uyg'onish davri ekanligi haqida mutlaqo yozmagan” (O'sha kitob, 197–208-betlar) deb tuzatishlar kiritibsiz.

Endi meni eshiting!

Birinchidan, tarixchilarning aksariyati XV–XVI asrlardagi Yevropadagi yuksalishni Yevropa davlatlari uchun o'ziga xos renessans deb to'g'ri tushungan.

Ikkinchidan, arablar bosqiniga qadar Movarounnahrda, ya'ni hozirgi O'zbekiston hududiy doirasida Azamat Ziyo aytganidek xarobalik, tushkunlik yuz bermagan. Aksincha, ilk o'rta asrlarda har jabhada yuksalishlar, o'ziga xos rivojlanish bo'lganligi kuzatiladi. Bu arxeologik yodgorliklarni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uchinchidan, Azamat Ziyo va siz Usmonbekning xatosi shundaki, ikkala-ngiz ham birinchi “Musulmon uyg'onish davri” Azamat Ziyo aytgan IX–X yoki siz aytgan IX–XII asrlarda emas, balki IX–XIII asrning birinchi choragida, ya'ni mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan.

To'rtinchidan, Usmonbek, siz Azamat Ziyo kitobida yurtimizdagi birinchi uyg'onish davrining “Musulmon uyg'onish davri” deb nomlanishi tarixiy haqiqatga zid ekanligi haqida lom-mim demagan, deb haq gapni gapirgansiz. Chunki jahon tarixida qabul qilingan tamoyillarga ko'ra, o'zbek xalqi tarixida birinchi renessans (uyg'onish, tub o'zgarish) mil. avvalgi II mingyillikning o'rtalarida, ya'ni so'nggi bronza davrida yuz bergan; Ikkinchi renessans esa antik davrida, mamlakatimiz hududlariga ellinizmning kirib kelishi va kushonlar saltanatining qaror topishi davrida yuz berdi; uchinchi renessans esa IX–XIII asr boshlarida yuz berdi. Birinchi musulmon renessansi Arabistonda emas, balki musulmon olamining Xuroson va Movarounnahr mintaqalarida, bizning ajdodlarimiz Ahmad Farg'oniyy, Abu Nosir Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalar ilmiy va amaliy ijodi tufayli yuz berdi. To'rtinchi renessansning poydevorini Amir Temur yaratdi, uning nabiralari Samarqand va Hirot maktabining olimlari to'rtinchi renessans asosini yaratdilar. Bunga Mirzo Ulug'bek va uning maktabining olimlari, Hirotida temuriy zoda Boysunqur mirzo va Alisher Navoiyning ilmiy ijodi asos bo'ldi. Beshinchi renessans asosini Turkiston jadidlari yaratdi. Keyingi uchta renessansning ilmiy, ma'rifiy va mafkuraviy asoslarini yaratgan fan va madaniyat darg'alari aslida qadimgi Eron va Turon mulkining allomalari bo'lib, taraqqiyot zaminida inson omilining yaratuvchilik qudratiga ishonganlar.

Diniy maslagi islom bo'lsa-da, e'tiqodi ilm-u fan bo'lgan, ular butun borlig'i bilan tabiat va jamiyat sir-asrorlarini faqat ilm-fan orqali bilish mumkinligiga ishonganlar va shu yo'lda erishgan kashfiyotlari bilan jahon ilmiy olamida munosib o'rin egallaganlar. Tasav-

TO‘XTATAYLIK!

vuf olimlari Abduxoliq G‘ijduvoniylar va Bahovuddin Naqshband hamda ularning izdoshlari ham “Qalbing Ollohda, qo‘ling mehnatda, ijodda bo‘lsin” e‘tiqodini bilan yashaganlar.

Demak, islomning mo‘jizakor kashfiyotlari Bag‘dodda emas, balki turkiy va forsiy olamda yaratilgan. Bag‘dodda tashkil topgan Ma‘mun akademiasining asoslari turkiy va forsiy dunyoning ijodiy mahsulidir. Unda nega jahonda yuz bergan renessanslar islom bilan bog‘lanadi, undan oldin yuz bergan tabiat va jamiyatdagi tub o‘zgarishlar bo‘lmasa, islom nomli renessanslar bo‘larmidi? Yo‘q bo‘lmas edi!.

Endi maqola muallifining Shayboniylar va Ashtarxoniylar haqidagi fikrlari to‘g‘risida ikki og‘iz so‘z.

“Azamat Ziyoyozadi: “Shayboniylar bilan birga kirib kelgan, ulardan keyin davlatimizni boshqargan Ashtarxoniylar hukmronligi bosqichida avj olgan ko‘chmanchi siyosiy tafakkur pirovardida bizga o‘ta qimmatga tushgan. Siyosiy hayotda urug‘aymoqchilikning kuchayishi (92 urug‘!), oxir-oqibat (18-yuzyillik boshida) kechagina butun olamni so‘rab turgan buyuk davlat – Turonning uchga bo‘linib ketishiga olib keldi”. Afssuski, bu iboralarda tarixiy haqiqatdan ko‘ra, ko‘proq hissiyot ustunlik qilgani yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi”.

Bu tanqidiy fikrga qo‘shilsa bo‘ladi. Chunki shayboniyzodalar va ularning vorislari Ashtarxoniylar ichki dunyosida o‘zaro feodal intrigalar, hatto so‘nggi temuriylar o‘rtasidagi ijtimoiy birlikning yo‘qligi Amir Temurdek daho hukmdor saltanatini parchalashga olib kelgan. Bularning zahirida – aslzodalarga xos ko‘pxotinlik oxir-oqibatda har qanday buyuk imperiyaning ham halokatga olib kelishi muqarrardir.

Tarix taqozosiga ko‘ra Shayboniynonning Movarounnahr va Xurosonga kirib kelishi arafasida butun olamni so‘rab turgan Temuriylar davri tugab bo‘lgan edi. Bu holatni Muhammad Shayboniynon ham yaxshi bilardi. Saltanatni bu ko‘yga solganlar Shayboniynon va shayboniylar emas, temuriylarning o‘zi edi. Bora-bora saltanatda it egasini tanimaydigan holat yuzaga keldi. Bu esa saltanatdagi og‘ir ichki siyosiy vaziyatni yanada taranglashtirdi. Tabiiyki, har qanday jahongir ham bunday og‘ir vaziyatdan o‘z manfaatini yo‘lida foydalanadi. Shayboniynon ham shunday qildi. Binobarin, Temuriylar saltanatining qulashiga aslida temuriylarning o‘zlari sababchi bo‘ldi, shayboniylar esa uni nihoyasiga yetkazdi, xolos.

Xulosa shuki, Muhammad Shayboniynon o‘zbek davlatchiligining ildiziga bolta urmadi, aksincha, temuriyzodalar qila olmagan ishni qildi. Ya‘ni Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni yagona davlatga birlashtirdi. Eng muhimi, Turondagi eng ko‘p sonli aholi guruhiining o‘zbek atamasi ostida to‘planishini boshlab berdi. Shu xalq nomi bilan ataluvchi davlat garchand Rossiya bolsheviklariga qaram bo‘lsa-da, 1924-yilda shu nom bilan O‘zbekiston Sovet sotsialistik Respublikasi tashkil etildi. o‘zbek degan nom etnik ma‘no mazmun kasb etdi.

1991-yilda shu nom bilan mustaqillikka erishdik, 1992-yilning 2-martidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi nomi bilan xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a‘zosiga aylandi. Mana 35 yildirki, bu davlat mustaqil rivojlanmoqda va jahon hamjamiyatida borgan sari o‘zining mustahkam o‘rnini egallamoqda. O‘zbek degan millat dunyoda shaxdam qadam tashlamoqda. Bularni inkor etish mumkin emas.

Azamat Ziyomaqolasida Buxoro amirligida hokimiyatni qo‘lga kiritish ishtiyoqida yongan Fayzulla Xo‘jayevning Sovet Rossiyasi rahbarlari bilan uchrashganligi, ular bilan amirni taxtdan ag‘darish rejasini pishirib, Moskvada “Yosh buxoroliklar” faoliyatini tuzganligi, uning faoliyatini tashkil etish uchun Rossiya hukumatidan 155000 rubl olganligi, 1920-yilning avgust oyida o‘zi boshchiligidan oldindan Buxoro Xalq nozirligi sho‘rosi hukumatini tuzib qo‘yganligi haqida yozgan... Shuning bilan birga Usmon Jo‘rayev Azamat Ziyoga: “Fayzulla Xo‘jayev shunday qilmaganida Buxoro amirligi qulatilmagan bo‘larmidi?” deb mulohaza qilsa, yomon bo‘lmasdi” deya o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Men sizni, Usmonbek, tushuna olmay qoldim. Goh Azamat Ziyoni tanqid qilasiz, goh unga maslahat berasiz! Tarix g‘ildiragi orqaga emas, olg‘a bosadi. Fayzulla Xo‘jayev “Yosh buxoroliklar”ning konstitutsion monarxiyaning saqlab qolish g‘oyasiga qarshi bo‘lgan buyuk turkchilik emas, balki turkizm tarafdori edi. U vaziyatni to‘g‘ri tahlil etish salohiyatiga qodir jadid edi.

Usmonbek! Mulohazalaringizning aksariyati tahsinga sazovor, lekin Sharof Rashidov va Fayzulla Xo‘jayevga qarshi nohaq tosh otishingiz, ko‘p narsalardan xabarsiz ekanligingizni ko‘rsatadi. O‘zbek xalqi va uning tashvishi haqidagi qayg‘u-alamlari va vijdon azobi ularni hayotdan erta olib ketdi. Fayzulla Xo‘jayev o‘z xalqining kelajagi yo‘lida butun borlig‘ini sarfladi, Sh.Rashidov esa O‘zbekistonning o‘zgalik tomonidan toptalishiga yo‘l bermaslik yo‘llarini topib, Ittifoq budjetidan O‘zbekistonga keragidan ortiqcha mablag‘ olib kelishni uddaladi. Kerakli kadrlarni asray bildi. U odamdagi madaniyat, muomala, mushohada, insonning ishiga, ona Vatanga sadoqatini yuksak darajada qadrlay bilish qobiliyati boshqa arboblarda kam uchraydi.

AQSHda jahon davlat rahbarlari orasida o‘z xalqi uchun qayg‘urgan XX asrning buyuk arboblardan 100 kishi haqida ensiklopediya chop etilgan. Shular orasida O‘rta Osiyodan atigi ikki davlat arbobi tilga olinadi. Biri Fayzulla Xo‘jayev bo‘lsa, ikkinchisi Sharof Rashidovdir. Ularning o‘z xalqi uchun qayg‘urib, juda zukkolik bilan faoliyat olib borganliklari va o‘ta ustomon siyosatchi bo‘lganliklari ta‘kidlanadi...

Keling, do‘stlar – vatandoshlarim! Tirnoq ostidan kir qidirishni to‘xtatib, Yurtboshimizga kamarbasta bo‘laylik, shunda ilojisizlikdan qiynalgan qalbimiz taskin topadi.

Ahmadali ASQAROV,
“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi,
akademik

Fasl tanlovi

“Faslning eng yaxshi ijodkori” tanlovining (2026-yil, bahor) nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblar bilan tanishish. “Ma‘rifat” gazetasi sizning har bir ijodiy ishingizni qadrlaydi. Ijod qilishdan to‘xtamang. Mualliflarni faollikka chorlaymiz.

Bahor fasli g‘oliblari

T/r	Tanlov yo‘nalishi	Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi)	Muallif
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
1.	“Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola”	Tarix – bugungi kun uchun o‘g‘itdir(4.03.2026)	Usmon JO‘RAYEV, Bo‘ka tumanidagi 8-maktab o‘qituvchi
2.	“Pedagog-muallifning dolzarb materiali”	Nega faqat Amir Temur?(4.03.2026)	Akbar ZAMONOV, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor ALIMJONOV, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
3.	“Eng yaxshi ocherk yoki esse”	“U ta‘lim uchun tug‘ilgandek” (1.04.2026)	Zilola MADATOVA
4.	“Ta‘lim-tarbiyaga oid amaliy taklif”	Maktablarda ota-onalar navbatchiligi tashkil etilsa... (11.03.2026)	Dostonbek SHARIPOV, O‘zMPU talabasi, Parkent tumanidagi 26-maktab o‘qituvchisi
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
5.	“Voqelikka munosib sharh yoki munosabat	Bola va pul munosabatlari (1.04.2026)	Nazokat XOLMETOVA
6.	“Mazmunli intervyu, suhbat”	Bir kuni samolyot meni manzilinga eltish uchun uchdi! (18.03.2026)	Shahnoza YANGIBOYEVA
7.	“Sermazmun sahifa”	Muharrir kerakmi? Kerak! (13.05.2026)	Husan KARVONLI
8.	“Samarali metodik material”	Jaloliddin Manguberdi shaxsi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima ko‘zgisida (18.03.2026)	Muhammad MAMATVALIYEV, NamDU mustaqil tadqiqotchisi
9.	“O‘qishli badiiy asar”	Yomg‘ir tunda yog‘adi (18.03.2026)	Tillaniso NUR
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
10.	“Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material”	Mulkdorlar kim aslida? (1.04.2026)	Ma‘murjon QIYOMOV, “Ma‘rifat” muxbiri, Dilbar UMAROVA, “Nodir Ishonch” advokaturasi advokati
11.	“Eng yaxshi tarjima materiali”	Bahor gullari (8.04.2026)	Qandilat YUSUPOVA
12.	“Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi”	Kreditga olingan obro‘: O‘zbekistonda to‘y va qarz fenomeni (3.09.2025)	Zayniddin PO‘LATOV, UrDU talabasi
13.	“Jozibali fotolavha yoki surat”	Ranglar va hislar uyg‘unligi (15.04.2026)	Muhammadbobur MAHMARAYIMOV



Mening tajribam

Tarixiy bilimlarni mustahkamlaymiz

(“Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi” mavzusida qo‘llash uchun, 10-sinf)

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarning ozod va hur yashashga bo‘lgan intilishlarini kuchaytirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning nutqi, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

O‘tilgan mavzuni takrorlashda asosan quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

“Anagramma” o‘yinida tarixiy shaxslar ismlaridagi harflar o‘rni aralash beriladi va bitta ortiqcha harf qo‘shib yoziladi. O‘quvchilar bu shaxslar ismlarini topganidan keyin ortiqcha harflardan chiqqan shaxs haqida ma‘lumot berishi kerak bo‘ladi.

1) Shaxslar nomini toping.

AURKNAMF_____KAUFMAN_____R
YEVAYOREHCN_____CHERNYAYEV_____O
QOYBU ESBK_____YOQUB BEK_____S
KEBSSLOHI_____SOLIHBEK_____S
QLLIUIAI_____ALIQULI_____I
YKIMJO‘HAAX_____HAKIMXO‘JA_____Y
MISAALUBQO_____ABULQOSIM_____A

Bu yerda kalit so‘z **ROSSIYA** va o‘quvchilar Rossiya haqida ma‘lumot aytishadi.

2) Hudud nomlarini toping.

TSHNTKOKE_____TOSHKENT_____K
AQOQ‘NO_____QO‘QON_____A
NTUECHMIK_____CHIMKENT_____U
ZORFTA_____TAROZ_____F
MTEYTVSUI_____YETTISUV_____M
XBAUORO_____BUXORO_____A
NSORAYIS_____ROSSIYA_____N

Kalit so‘zimiz **KAUFMAN** va o‘quvchilar tarixiy shaxs haqida ma‘lumot berishadi.

3) Tarixiy sanalar tilga kirganda.

1859-yil	1853-yil	1865-yil
1852-yil	1865-yil iyun	1864-yil kuzida
1855–1881- yillar	1864-yil	1867-yil

Sanalar yozilgan jadval slayd orqali qo‘yiladi, o‘qituvchi tomonidan ma‘lumot aytiladi va o‘quvchilar bu ma‘lumot qaysi yilga taalluqli ekanini topishadi.

1. Rossiya imperatori Aleksandr II hukmronlik qilgan yillar.

2. Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil etilgan?

3. Oqmachit qal‘asini egallashga dastlabki harakatlar qachon boshlangan?

4. Qo‘qon xonligini bosib olishga harakatlar qaysi yili kuchaygan?

5. Oqmachit qal‘asi egallangan yil.

6. Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tuzilgan yil.

7. Chernyayev tomonidan Chimkent qachon egalandi?

8. Turkiston viloyati tashkil topgan yil.

9. Toshkent qachon egallanadi?

Yangi mavzu bayon qilinadi va mavzuni mustahkamlash uchun “**Tarixiy xatoni top**” metodidan foydalaniladi. Unda mavzuning bir qismidan matn tayyorlanadi va o‘quvchilarga o‘qib eshittiriladi, keyin matnning ayrim joylari o‘zgartirish kiritilib o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar xatolarini topishi kerak.

Mavzuni mustahkamlashda yana boshqa metodlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga yillarga mos javobni topish vazifasi beriladi. Bunda o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan tarqatmalar tarqatiladi va ular mos javoblarni tezlik va zukkolik bilan topishi kerak bo‘ladi.

1	1875-yil 22-sentabr	a	Xiva va Qo‘qon xonliklari yerlari bosib olindi.
2	1864–1885-yillar	b	Nasriddinbek Kaufman bilan shartnoma imzoladi.
3	1847–1865-yillar	d	Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.
4	1873–1879 yillar	e	Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining shimolig‘arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi.
5	1865–1868-yillar	f	Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi.

“**Tushunchalar tahlili**” metodi. O‘quvchilar atamalarni tahlil qilib chap tomondagi javoblar bilan muvofiqlashtiradilar.

Kontributsiya	Mustamlaka mamlakat qaramligining bir shakli
Pristan	Bir davlatning boshqa bir davlatga bo‘ysunish tartibi
Vassal	Daryolar sohilida qayiqlar, kemalar to‘xtaydigan, maxsus joy – bandargoh
Protektorat	Mag‘lub davlatning g‘olib davlat foydasiga pul to‘lovi

Dars yakuni:

1. O‘quvchilarning savollariga javob beriladi.
2. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Darsga xulosa qilinadi.

Dilafro‘z JUMANIYOZOVA,
Uchtepa tumanidagi
228-maktabning
tarix fani o‘qituvchisi

Sinab ko‘ring

Tarix fanini tadqiqotchilik asosida o‘qitishni tashkil etish

Tadqiqotchilikka asoslangan ta‘lim – jarayonda asosan o‘quvchi roliga urg‘u beradigan ta‘limiy yondashuv. O‘qituvchi o‘quvchilarga bilishi kerak bo‘lgan narsalarni o‘zi aytib bermaydi, balki ularning o‘zlarini mustaqil o‘rganish, savollar berish va fikr almashishga undaydi.

Tadqiqotchilikka asoslangan ta‘lim muhokama, kichik guruhlarda ishlash va aynan ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha mustaqil o‘rganishlar olib borishda samara beradi. Bunda o‘quvchilar fakt va ma‘lumotlarni yodlash o‘rniga, amalda o‘rganadilar. Bu tadqiqot, tajriba va munozara orqali bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.


Masalan, 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidagi “**Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining shakllanishi**” mavzusi doirasida o‘quvchilarga mustaqil topshiriq berib, o‘z oilalari shajarasini tuzib kelish vazifasi beriladi. Buni nazorat ishining bir qismi sifatida baholash mumkin. Bu orqali bola o‘z bobo-buvisi, ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan muloqotga kirishadi va kommunikativlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Qolaversa, bu kichkina tadqiqot ishi bolani o‘z oilasi tarixini yaqindan bilib, faxr-u iftixor tuyishga, kerakli xulosalar chiqarishga undaydi. O‘quvchi bu ishni elektron tarzda bajarish orqali AKT savodxonligini ham oshirib boradi.

Ayni shu darslikdagi “**VI–VII asrlarda Turon xalqlarining madaniy hayoti**” mavzusini tadqiqotchilikka asoslanib tashkil etib ko‘ramiz. Sinf o‘quvchilarini 3 guruhga bo‘lib olamiz va ularga o‘z guruhlarining yangi “alifbo”larini yaratib, uning asosida matn tuzishlari va shundan so‘ng bir-birlarining matnlarini alishib, o‘qishga harakat qilishlari so‘raladi. O‘quvchilar bu tadqiqotchilikka asoslangan amaliy-ijodiy ish orqali alifbo xalqlarning uzoq yillar davomidagi aql-zakovati mahsuli ekanligini va unga katta mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lish kerakligini tushunib yetadilar.

Loyihaga asoslangan ta‘lim yondashuvi

Loyihaga asoslangan ta‘lim – o‘quvchilar muammoni hal qilish uchun amaliy yechimlarni topish, loyihalash va ishlab chiqishini o‘z ichiga oladi. Uning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, o‘quvchilarni odatda kichik jamoalarda birgalikda ishlashga, qiyin yoki murakkab muammolarni hal qilish uchun ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Quyida biz loyihaga asoslangan ta‘lim asosida o‘quvchilarga berilishi mumkin bo‘lgan mustaqil topshiriqlarga misol keltiramiz. Ya‘ni sinf o‘quvchilari qur‘a tashlash orqali guruhlariga bo‘linadi va o‘zlari o‘rganayotgan tarixiy davr(qadimgi, o‘rta asrlar, yangi davr tarixi)ga daxldor bo‘lgan imorat maketini yarata-



TARIXNI JONLANTIRUVCHI DARSLAR

dilar. Buning uchun guruhlariga 2 hafta yoki 1 oygacha ham vaqt berilishi mumkin.

Sinfдан tashqari ishlarni tashkil etish usullari

Sinfдан tashqari ishlar – umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquv-tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, oʻquvchilarning boʻsh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfдан tashqari ishlar oʻquvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfдан tashqari ishlarga oʻquvchilar bilan oʻtkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashgʻulotlar tizimi kiradi. Bunday mashgʻulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar va bolalarning oʻz-oʻzini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi.

Sinfдан tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar, viktorina va koʻrgazmalar, turli ekskursiyalar, toʻgarak ishlari, mustaqil ishlar va hokazolarni koʻrsatish mumkin.

Ona Vatan tarixini puxta oʻrganish, uning porloq kelajagiga daxldorlik va yuksak muhabbat hissini shakllantirish maqsadida tarix fanidan 2 bosqichli **“Ustoz stipendiyasi”** koʻrik-tanlovini oʻtkazish mumkin.

“Ustoz stipendiyasi” nizomi bilan tanishish:

1. Tanlov 2 bosqichdan iborat boʻlib, savollar choʻrak davomida oʻtiladigan mavzulardan tuziladi.
2. Tanlov darsliklar kesimida boʻlib oʻtadi.
3. Maktabning har bir oʻquvchisi nafaqat oʻzi tahsil oladigan sinf, balki boshqa sinflarning tanlovida ham ishtirok etishi mumkin.
4. Qancha koʻp sinflarda gʻolib boʻlsangiz, shuncha koʻp sovringa ega boʻlishingiz kafolatlanadi.
5. Tanlovning 1-bosqichi 2-chorak oxirida, 2-bosqich esa 4-chorak soʻngida boʻlib oʻtadi. 1-bosqichda I-II chorak mavzularidan; 2-bosqichda III-IV chorak mavzularidan savollar tuziladi.
6. Savollar test, yozma, amaliy va shunga oʻxshash mantiqiy fikrlashga undovchi shaklda tuzilishi mumkin.

Oʻquvchilarning yozgi taʼtilini yanada mazmunli oʻtkazish maqsadida iyul-avgust oylarida tarix fanidan 2 bosqichli masofaviy olimpiada tashkil-lashtirish ham ijobiy samara beradi.

Tanlov nizomi quyidagicha boʻladi:

- Tanlov 2 bosqichli boʻlib, har bir bosqich 100 ballda baholanadi. Jami: 200 ball.
- 1-bosqichda maʼlum bir darslik doirasida test sinovi boʻlib oʻtadi (25 ta test). Ushbu testlarning kamida 15 tasiga toʻgʻri javob bergan oʻquvchi 2-bosqichga yoʻllanma oladi. Test savollari masofaviy toʻgarak guruhiga yuboriladi va oʻquvchilar 20 daqiqa ichida (javoblarni rasmga olib yuborish bilan birga) ruchka bilan belgilangan qogʻozni rasmga olib, yana shu guruhga yuborishi talab etiladi.
- 2-bosqich masofaviy, videoaloqa koʻrinishida boʻladi.
- Maʼlum bir darslik doirasida tuzilgan tezkor 10 ta savolga ogʻzaki javob berish – 20 ball.
- “Darslikdagi siz uchun ideal davlat qaysi va nega? Uning qaysi yutuqlarini Vataningizda joriy etgan boʻlardingiz?” (Oldindan maʼlumot tayyorlab, ogʻzaki javob berish kerak) – 20 ball.
- “Siz yashaydigan tuman yoki mahallada joylashgan tarixiy obida-yodgorlik haqida mukammal taqdimot”. Taqdimotni 2 tilda – oʻzbek va ingliz tilida tayyorlash talab etiladi. Taqdimotda oʻzingizning yodgorlikka borganingiz tasviri – rasm va videolaringiz boʻlishi talab etiladi. Oʻzbek va ingliz tilidagi maʼlumotlar toʻgʻridan toʻgʻri koʻchirilishi mumkin emas. Maʼlumotlar ikki tilda ham bir xil boʻlishi va foydalan-gan manbalar koʻrsatilib, oʻqituvchining shaxsan oʻzi tomonidan tarjima qilingan boʻlishi talab etiladi – 20 ball.

• “Darslikdagi siz uchun ideal shaxs kim va nega?” – 20 ball.

• “Darslikdagi biror-bir tarixiy jarayon, voqeani tasavvur qiling va shaxsan oʻzingiz rasmini chizing va izohlab bering”. Darslikdagi rasmlardan foydalanish mumkin emas – 20 ball.

• Bonus – 5 balgacha. Erkin mavzu.

5-sinf “Tarixdan hikoyalar” darsligining **“BMT va dunyo bolalari”** mavzusi asosida **“Bola huquqlari toʻgʻrisida”**gi konvensiya moddalarini oʻzida aks ettirgan rasmlar koʻrgazmasini tashkil etish mumkin.

Ushbu koʻrgazma 5-sinf oʻquvchilarining tarix fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi.

Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan ham “Amir Temur va temuriylar davri bilimdoni” tanlovini oʻtkazish mumkin.

Tanlov 8-sinflar oʻrtasida oʻtkaziladi:

- 1) Guruhga nom qoʻyiladi va sharhlanadi, shior tanlanadi – 10 balgacha;
- 2) Amir Temurga atalgan sheʼr aytish – 5 balgacha;
- 3) Amir Temur haqida xorijiy tilda (ingliz, rus va boshqa) maʼlumotlar aytish – 5 balgacha;
- 4) Amir Temur va temuriylar davri hamda **“Temur tuzuklari”**dan tuzilgan savollarga javob berish. “Zakovat” oʻyini shaklida. 20 ta savol – 20 balgacha;
- 5) Sahna koʻrinishi – 30 balgacha;
- 6) Sardorlar bellashuvi. Xotira jangi. Eng koʻp maʼlumotlar aytish – 10 balgacha;
- 7) Guruhlar oʻrtasida oʻzaro savol-javob. Sinflar bir-biriga 10 ta savol berishlari mumkin – 10 balgacha;
- 8) Amir Temur haqida darsliklardan tashqari maʼlumotlar aks etgan taqdimot – 10 balgacha;
- 9) Erkin mavzu – 10 balgacha;
- 10) Yoddan Amir Temur hikmatlarini eng koʻp aytib bergan oʻquvchi – 20 balgacha.


Jami: 130 ball.

Oʻquv mashgʻulotlarida qoʻllash mumkin boʻlgan tavsiyaviy metodlar

“Qaynoq mikrofon”. Ushbu metod oldingi mavzuni takrorlash yoki yangi oʻtilgan mavzuni mustahkamlashda samarali hisoblanadi. Oʻqituvchi 5 nafargacha oʻquvchini doska qarshisiga taklif qiladi va oʻyin shartlari bilan tanishtiradi: “Hurmatli oʻquvchilar, qoʻlimda “qaynoq” mikrofon turibdi, hozir ushbu mikrofonni qoʻlingizga olasiz va mavzu boʻyicha bitta maʼlumot aytasiz, soʻng keyingi oʻquvchiga mikrofonni uzatasiz. Ammo ehtiyot boʻling, mikrofon juda ham “qaynoq”. 5 gacha sanagunimcha maʼlumot ayta olmay, mikrofonni ushlab qolsangiz, qoʻlingiz “kuyadi” va siz oʻyinni tark etasiz”.

“Kursi egasi”. Ushbu metod ham mavzuni mustahkamlash uchun juda samarali. Sinf 3 guruhga boʻlinadi va har bir guruhdan vakillar taklif qilinadi hamda oʻquvchilarga shart tushuntiriladi: “Bolajonlar, ushbu kursi sehrli hisoblanib, kim unga koʻproq oʻtira olsa, barcha orzulari roʻyobga chiqadi. Uni egallash uchun mavzuga doir bitta maʼlumot aytasiz va kursini egalaysiz, ammo keyingi oʻquvchi maʼlumot ayta olsa, siz kursini unga boʻshatib berishga majbur boʻlasiz. Agar 5 gacha sanagunimcha maʼlumot ayta olmasangiz, oʻyinni tark etasiz. Kursini eng koʻp egallagan oʻquvchi oʻyinimiz gʻolibiga aylanadi”.

“Tarix tilga kirganda yoxud meni top”. Ushbu metod darsingiz zavqli boʻlishini taʼminlaydi va bolalarga quvvat ulashib, ularni faol harakatlantiradi. Oʻquvchilarga qirqilgan qogʻoz parchalari tarqatib chiqiladi va shunday koʻrsatma beriladi: “Qani, bolajonlar, sizga 3 daqiqa vaqt beraman va bu vaqt ichida siz 3 ta savol tayyorlaysiz. Ammo savolni shuncha-ki bayon qilmaysiz, balki savolingizda yashiringan obyektga aylanib, uning tili bilan savolni aytasiz. Siz narsa, joy, shaxs yoki voqea boʻlishingiz mumkin.



Masalan, quyidagicha savol berishingiz mumkin: *men hayotligimdayoq oʻzim uchun maqbara qurdirganman, maqbaramni qurish uchun 720 ming kishi mehnat qilgan, mening maqbaram Misr piramidalari bilan hashami va goʻzalligi jihatidan bellasha oladi. Men kimman?* Oʻtirgan yoki maxsus tanlangan oʻquvchi(lar) “Siz Sin Shixuandisiz” deb javob berishlari mumkin”.

“Qoʻshilaman-qoʻshilmayman” – bu oʻquvchilar uchun juda ham zavqli oʻyin. Bolalarni ochiq havoga olib chiqib tashkil etish mumkin. Bunda oʻqituvchi bob boʻyicha oʻtilgan mavzularga oid bitta fakt aytadi. Fakt **xato** yoki **toʻgʻri** boʻlishi mumkin. Oʻquvchilar bu maʼlumotni toʻgʻri deb bilishsa, **“Qoʻshilaman”** deb oldinga qadam tashlaydi. Agar maʼlumotni xato deb topishsa, **“Qoʻshilmayman”** deb joylarida qolishadi.

“Tarixiy shaxslar uchrashganda”. Bu metod ham hayajonli, ham tabassum ulashuvchi metoddir. Masalan, siz “Buxoro amirligida mangʻitlar hukmronligi” mavzusini yoki shu sulolaga oid bir nechta mavzularni oʻtib boʻlgach, oʻquvchilarni juftliklarga boʻlib chiqasiz va har birlari shu sulola hukmdorlaridan bir kishidan tanlab oladi va oʻzlarini shu inson deb tasavvur qilishlari kerak boʻladi. Ustoz oʻquvchilarga 5 daqiqa tayyorlanib, takrorlab olishlari uchun vaqt beradi. Shundan soʻng 2 nafar oʻquvchi doskaga taklif qilinadi va ular galma-gal oʻzlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni aytib, bir-birlariga maqtanadilar, magʻrurlanadilar, shundan soʻng esa bir-birlarining kamchiliklarini ham aytib, tanqidga ham oʻtishlari mumkin. Oʻyin oxirida oʻquvchilardan jarayondan qanday xulosa chiqarganliklari soʻraladi.

“Tarix sahnada jonlanganda yoxud pantomimo”. Bu metoddan bir bobni tugallaganingizdan soʻng mavzularni mustahkamlash uchun foydalanishingiz mumkin. Bunda bolalar navbat bilan doskaga chiqib, biror tarixiy jarayonni soʻzsiz, qoʻl, oyoq, gavda va yuz ifodalarini harakatga keltirib, tasvirlab berishga harakat qiladilar, qolgan oʻquvchilar esa javobni topishga harakat qiladi.

“Turistni jalb qil”. Ushbu metoddan bir nechta davlat mavzularini oʻtganingizdan soʻng mustahkamlash uchun foydalanishingiz mumkin. Bunda oʻquvchilar juftliklarga boʻlib chiqiladi va ular 2 xil davlat tanlaydilar. Sinfga mehmon oʻqituvchi taklif qilinadi. Bolalarning har biriga turli rangdagi chipta beriladi. Bolalar oʻzlari tanlagan davlat haqida navbatma-navbat tavsif berib, “turist” – mehmon ustozni oʻsha davlatga sayohat qilishga undaydilar. Belgilangan vaqt tugagach, “turist” bolalarning qoʻlidagi chiptalardan bittasini tanlashi kerak boʻladi. Bu shuni anglatadiki, turist tanlagan chipta egasi oʻz davlati haqidagi maʼlumotlarni qiziqarli qilib bayon etgan boʻladi.

Fazliddin ABDURAIMOV,
Termiz shahridagi Prezident maktabi
tarix fani oʻqituvchisi

Soʻz tarixi – oʻz tariximiz



Samarqand viloyatining janubiy sarhadlarida yastanib, viqor toʻkib turgan Zarafshon togʻ tizmalarining ajoyib manzarasi, iqlimi, Eski Anhor kanalining joʻshqin suvlari Xonchorbogʻ tabiati, tarovatiga goʻzallik bagʻishlaydi. Qishlogʻimiz shundoq yonidan Samarqand-Qarshi temiryoʻli oʻtgan. Xonchorbogʻ – Pastdargʻomning janubiy darvozasi hisoblanadi. Atrofida Sanchiqul, Juz, Navroʻztepa, Umakay, Kanalyoqa, Sayram, Sarikoʻl, Qumtepa qishloqlari joylashgan.

Mahallamiz hududidan topilgan terrakota (terrakota – italyancha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida “qizdirilgan loy” demakdir) haykalchalari miloddan avvalgi II-I asrlarga oid. Jumladan, bu haykalcha qolipida musiqachi tasvirlangan. Uning qolipi 1978-yili SamDU tarix fakulteti talabasi, hozirda tarix fanlari doktori, kafedra mudiri Baxtiyor Ergashev va doʻsti Baxtiyor Amirqulovlar tomonidan topilgan. **1-rasmda** suv va hosildorlik ilohasi hisoblangan Ardivisura Anaxitaning bosh qismi aks etirilgan. Bu haykalcha 2008-yili mahalladoshimiz Farid Idrisov tomonidan ochiq daladan topilgan. Ushbu terrakota haykalchalari SamDU tarix fakulteti arxeologiya muzeyi ekspozitsiyasidan joy olgan. **2-rasmdagi** terrakota haykalchasining bosh qismi 2020-yili mahalladoshimiz Bunyod Haqberdiyevning hovlisidan topilgan boʻlib, unda zardushtiylik dinining quyosh xudosi – Mitra tasvirlangan. U vatanparvar jangchi timsolida boʻlib, kamalakka uning kamoni deb eʼtiqod qilingan. Ularning tasavvuricha, Mitra doimiy ravishda yovuzlik, qorongʻulik kuchlariga qarshi kurashib kelgan. Yovuz kuchlar ziyon yetkazmasligi uchun odamlar yer haydab dehqonchilik qilishga, gʻalla yetishtirish, chorvachilik bilan shugʻullanishga daʼvat etilgan va bunday mehnat sharaflangan.



1-rasm.

Anaxita haykalchasi. Miloddan avvalgi II-I asrlar. Xonchorbogʻ.

Antik davrga tegishli bu haykalchalar mahallamiz hududi qadimdan dehqonchilik vohasi boʻlgani, sanʼat, musiqa va haykaltaroshlik rivojlangani isbotidir. Mahallamizdagi qadimiy tepaliklar oʻtgan asrning 70–80-yillarida oʻzlashtirib yuborilgan. Bu joylardan koʻplab sopol xumlar topilgan. Ularning yoshi 1500–2000 yil ekanini arxeologlar tomonidan tasdiqlangan.

Mahalladoshlarimiz ariq qazish vaqtida yirik xumlar, sopol idishlarga duch kelishgan. **3-rasmdagi** bu xumlarda suv, don, oziq-ovqat saqlangan, qatiq tayyorlangan. Bu koʻzani aka-uka Otabek va Qobil Yangiboyevlar 2020-yilda hovlisidan topishgan.

Xonchorbogʻ toponimi “xon” va “chorbogʻ” soʻzlari birikuvidan hosil boʻlgan. Oʻzbek tilining izohli lugʻati-da yozilishicha, “xon” – turkiy va moʻgʻul xalqlari unvoni, “chorbogʻ” – shahardan tashqaridagi hovli-joyli, qoʻrgʻonli bogʻdir. Xonchorbogʻ – xonning chorbogʻi demakdir.

Tarixdan maʼlumki, Abdullaxon II Amir Temuridan keyin “sohibqiron” nomi bilan ulugʻlangan, xizmatlari bois “Iskandari soniy” – Ikkinchi Iskandar nisbasi bilan eʼzozlangan qudratli hukmdor edi. Pastdargʻom tumani Xonchorbogʻ qishlogʻida ham Abdullaxon II ning chorbogʻi boʻlgani haqidagi tarixiy rivoyatlar xalq xotirasida avloddan avlodga oʻtib kelmoqda. Bir rivoyatda aytilishicha, hozirgi Xonchorbogʻ hududida katta katta bogʻ boʻlib, undagi mevali daraxtlar moʻl-koʻl hosil bergan. Bogʻ yonidan katta savdo yoʻli oʻtgan. Eskidan karvonlar yoʻl yurib Xonchorboqqa kelganida tuyalar mevali daraxtlar shoxlariga osilib, hosilini yeb qoʻymasini deb ularning

oʻgʻzini toʻrvaxalta bilan bogʻlab qoʻyishgan. Abdullaxon II ning saroy tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (Sharafnomayi Shohiy) asarida Samarqanddagi tartibsizliklarni bostirish uchun qoʻshin tortib berayotgan Abdullaxon II ning hozirgi Pastdargʻom tumani hududlarida bir necha bor toʻxtab oʻtgan haqida maʼlumot berilgan. Bu borada manbada quyidagilar yozilgan:

“...Abdullaxon oʻsha joydan osmonga suyanuvchi uzangini harakatga keltirib, yaxshi toleʼ bilan yoʻlga tushdi. Qancha manzillarni kezib Qoqlik degan bir mavzeʼga qoʻndi. ... ul Iskandar rubali shoh Koʻli Mogʻiyonga tushdi. Ul mavzeʼning havosi zafarshior otlar changidan Totor iporining gʻayratini keltiradigan boʻldi. Oʻsha Eram bogʻidan ham yaxshiroq sahro xurramlik oʻtlovida saroparda borgoh qubbasini oy manziliga toʻgʻrilab tikdilar va oʻsha biyobon atrofi chodirlar oʻrni boʻldi...”.

“Abdullanoma” asarini nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi akademik Boʻriboy Ahmedov Qoqlik va Koʻli Mogʻiyonni quyidagicha izohlaydi: “*Qoqlik bu joy aslida Qoʻriqi Qoqlik deb atalib, Qarshi bilan Samarqand oraligʻida Samarqandga yaqin bir mavzeʼ boʻlgan. Koʻli Mogʻiyon – Koʻli Mogʻok, Samarqandning gʻarbiy tarafida, undan taxminan ikki sharʼi (toʻrt km.ga yaqin) masofada joylashgan xushmanzara joy.*”

Yuqoridagi ikkala joy ham Xonchorboqqa yaqin boʻlgan. Qarshidan Samarqandga yoʻlga chiqqan Abdullaxon II bir necha manzillarga qoʻnib, yoʻlida davom etib Eski Anhor kanalining shimoliy qismida, mahallamiz hududidagi qadimgi qabristondagi ziyoratgohga duch keladi. Xon ziyoratgoh atrofidagi qaqrab yotgan yerlarni obod qilishga buyruq beradi. Qoʻshin hozirgi Xonchorbogʻ yerida toʻxtab, katta tepalik ustiga qoʻrgʻon quradi. Qoʻrgʻon atrofini toʻrtburchak shaklda qalin paxsa devor bilan oʻrab, hovli ichiga daraxtlar, gullar ekadi. Ushbu inshoot Xonchorbogʻ deb ataladi. Eski Anhor kanalini qayta taʼmirlab uning atrofidagi yerlarni obod qiladi. Zarafshon togʻ tizmalaridan oqib tushuvchi Sazagʻonsoy, Egriqulsoy, Oqsoy kabi soylar suvi Xonchorboqqa oqib kelishini yoʻlga qoʻyadi. Bu suvlar Xonchorbogʻ yerining pastki qismida yigʻilib katta koʻlni tashkil qilgan.



2-rasm.

Mitraning bosh haykali. Miloddan avvalgi II-I asrlar. Xonchorbogʻ.

Ustozimiz Muhammadi Tursunovning aytishicha, qishlogʻimiz hududida Abdullaxon II qurdirgan chorbogʻ yoʻnalishidan Miyonkol shamoli esib turgan va hozir ham shunday. Miyonkol shamoli yoʻnalishi mahallam-

izdan boshqa hududlarda kuzatilmaydi. Abdullaxon II bu yerdan oʻtayotib, Miyonkol shamolini his qilib, shu yerda chorbogʻ qurishni buyurgan boʻlsa, ajab emas.

“Abdullanoma”da Xonchorbogʻ haqida quyidagilarni oʻqiymiz: “... *Xoqon olam sulton zodasi va inson koʻzining nuri Abdulfath Abdulmoʻmin sulton xotirining xohishiga muvofiq oʻsha kechasi hukm qildi: Xon chorbogʻining eshigiga xushqad qabaq tiklasinlar. Quyosh-u oydan xabar beradigan bir necha tilla va kumush qabaglarni gajjakka olsinlar*”. Abdullaxon II Xonchorboqqa kelmasidan oldin bu joy nomi qanday boʻlgani hozircha nomaʼlum.



3-rasm.

Dastali sopol suv idish. X-XI asrlarga oid. Xonchorbogʻ.

1980-yillarda mahallamizdagi qadimgi qabristonda mavjud ikkita qabrtoshdan birini nomaʼlum kishilar olib ketishgan. Keksalarning aytishicha, u qabrtoshdagi yozuvlarni 1960-yillarda qishlogʻimizga kelgan dogʻistonlik toshtaroshlarning rahbari – Ahmad Asatullayev yozib olgan va suratga tushirib oʻz yurtiga yuborgan. Dogʻistondagi bir imom qabrtosh yozuvlarini oʻqib, Xonchorboqqa xat joʻnatgan. Unda bundan besh yuz ellik yillar muqaddam vafot etgan Xitoy podshosi qizi(malika)ning qabriga qoʻyilgan yodgorlik ekanini haqida yozilgan. Saqlanib qolgan qabrtoshdagi yozuvlarni 2008-yili manbashunos olim Komilxon Kattayev oʻqib, bu qabrtosh hijriy 962, milodiy 1554-yilda vafot etgan Abdullaxoga ibn Darveshning qabriga qoʻyilgan yodgorlik ekanini aniqlagan.

Abdullaxon II Xonchorbogʻdan bir necha kilometr sharqda “Olti paxsa” deb ataluvchi qoʻrgʻon va Eski Anhor kanali ustiga pishiq gʻishtdan koʻprik ham qurdirgan. Koʻprik qoldiqlari hozir ham mavjud boʻlib, xalq uni “Gʻishtkoʻprik” deb ataydi. Rahmat bobo Jumayevning aytishicha, Abdullaxon II ning Xonchorbogʻi atrofiga aholisi oʻn ming kishidan ortiq katta mahalla mavjud boʻlgan. Xon vafotidan ancha yil oʻtgach, kasallik tarqalishi natijasida aholining koʻpi qirilib ketgan. Qolgan qismi qoʻshni qishloqlarga koʻchib oʻtgan. Xonchorbogʻ yerlari qarovsiz qolib, yaylovga aylangan.

XIX asrning oxirgi oʻnyilliklarida Xonchorboqqa kosonlik chorvador Xudoynazarboy (1860–1917) koʻchib kelgan. Keksalarning aytishicha, Xudoynazarboy Sanchiqul boylaridan Otamurod Dumning choʻponi boʻlgan. Xudoynazarboy galabeklik choʻponlar bilan kelisha olmay Xonchorbogʻdan ketgan. Mahallamizning savdo doʻkonlari joylashgan “Imom at-Termiziy” koʻchasining gʻarbida Xudoynazarboyning qoʻrgʻoni, turarjoyi boʻlgan. Sharqida esa uning chorva mollari boqilgan. Qoʻrgʻon qalin paxsa devor bilan oʻralgan. Ikkita darvozasi, tepasida harbiy qoʻriqchilar uchun shinaklari mavjud edi. Qoʻrgʻon hovlisida quduq ham boʻlgan.

Bu qoʻrgʻon 1960-yillargacha mavjud boʻlib, mahalliy xalq tomonidan “Kremli” deb atalgan. 1930-yillarda kolxozlar tuzish vaqtida Xonchorbogʻ hududlari 3 uchastkaga boʻlinib, “Illich” xoʻjaligi tarkibiga kiritilgan. 1936-yilda Xonchorboqqa kelgan I.Suxarev Xonchorbogʻ xarobalarining maydoni 19 gektar ekanini oʻz hisobotlarida yozib qoldirgan.

1935-yilda qishlogʻimizga Chiroqchi va Nurobod tumanlaridan odamlar koʻchib kelgan. Oʻsha vaqtda 20–25 metr chuqurlikda quduq qazib, suv olishgan. Tustovuqlar, sayroqi bulbullar, kiyiklar va boshqa jonivorlar mahallamiz hududida yashagan. 1937–1938-yillarda qatagʻon siyosati avj olgan davrda shimoliy Qozogʻistondan ziyolilar, ruhoniylar, yakka xoʻjalik boylari oʻz yurtini tark etib, Xonchorboqqa kelib yashashgan. Ularning otlari, tuyalari, chorva mollari koʻp boʻlgan. Bu yerda ham mollari sovxoiz hisobiga tortib olingach, ayrimlari oʻz yurtiga qaytib ketgan, ayrimlari esa muqim yashab qolishgan.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach uning taʼsiri qishlogʻimizdagi har bir xonadonga kirib bordi. Navqiron yigitlarning deyarli barchasi urushga safarbar etildi. Koʻpi jang maydonlarida halok boʻldi, bedarak yoʻqoldi. Qaytganlarining ham koʻpchiligi urush asoratlarini umrining oxirigacha oʻz badanlarida tashib yurishdi.

1938-yilda mahallamizga koʻchib kelgan Qoʻshoq bobo Jumayev (1906–1986) Pastdargʻom tuman harbiy boʻlimidan urushga safarbar etildi. 1942-yili dushman qurshovida qolib ogʻir tan jarohati oladi. Harbiy shifoxonada biroz davolanib chiqib yana urushga qaytadi. 1943-yil 14-sentabrda koʻzidan jarohat oladi va yana harbiy shifoxonaga yotqiziladi. Sogʻayib chiqqach harbiy xizmatni davom ettirib, yurtimizga yorugʻ yuz bilan, zafar quchib qaytadi.

Xolmurod Sayidov esa (1925–1944) 17 yoshida urushga yuborilgan. “151-strelkovoy polk”da harbiy xizmatni oʻtagan. Ukraina, Polsha frontida fashistlarga qarshi jang qilib, qahramonlarcha halok boʻlgan.

– Akam oʻtkir zehnlil, ilmlil, mahallamizdagi birinchi algebra oʻqituvchisi, yoshlar yetakchisi boʻlgan. Kitob rayoni komssomol komitetining sekretari lavozimida ishlagan, – deya xotirlaydi ukasi 75 yoshli Hoshim hoji bobo Sayidov. – Eski Anhor kanalidan qoʻshni mahallamiz Baqroq, Burganli, Juz, Gumbaz, Qoqsoy hududlariga suv olib kelish rejasini mirolarlarga tuzib bergan. Afuski, mashʼum urush akamni kelajakdagi ilmiy, rahbarlik ishlaridan mahrum etildi...

Mirzan bobo Nazarov (1918–2002) frontda eng koʻp jang qilgan mahalladoshlarimizdan. 1939–1945-yillari urushda boʻlgan. 1945-yil bahorida harbiy xizmatdan qaytgan. Qator orden-medallar bilan, jumladan, 1994-yili “Jasorat” medali bilan taqdirlangan.

Bobom Sattor Saxatov (1912–1987) 1941-yili harbiy xizmatga chaqirilgan. 1944-yili frontda mina portlashi oqibatida yaralanib harbiy shifoxonada davolanib chiqqach, fashistlar tor-u mor boʻlgunga qadar yana jang qilishda davom etgan. Bobom urushdan qaytguncha ukasi Rabbil Saxatov ikkovi nomiga ham qora xat kelgan. Otasi Norsoat bobom va onasi Qizlaroy buvim olti oy aza tutgan, uvvos solib yigʻlagan. Ollohning karomatini qarangi, ikki oʻgʻli ham frontning turli joyida boʻlsa-da, bir vaqtda uyiga qaytib kelgan.

Haydar bobo Rahimov (1917–1994) Rossiyaning Tula shahrida jangga kirgan, Moskva mudofaasida qatnashgan. Berlingacha dushmani quvib borgan. Qator orden-medallar olgan...

Mahallamizda yashab oʻtgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari juda koʻp boʻlgan. Ularning barchasini nomma-nom eslay desak, hali uzoq davom etishimizga toʻgʻri keladi. Bobolarimiz bugungi dorulomon kunlar uchun kurashgan, jon olib, jon berganlar. Ularning bu qahramonliklarini doim yodda saqlaymiz, qadrlab xotirlaymiz.

Qurbon bobo Boirov (1909–1991) 1940–1965-yillarda xoʻjalikda dala qorovuli, mahalla oqsoqoli boʻlgan.

Toʻy-maʼrakalarni oʻtkazish, kishilarning koʻchib kelishi, ularning ish bilan taʼminlanishini nazorat qilgan, boshqargan. Mahalla ahli oqsoqol boboning gapiga quloq solgan. Xoʻjalik rahbarlari ham u kishining maslahati bilan ish yuritishgan. 1965–1980-yillarda Qurbon bobo Mayinov (1934–1983) xoʻjalikda boʻlim boshligʻi lavozimida ishlagan, Samarqand qishloq xoʻjaligi institutining agronomiya fakultetini sirtidan bitirib, ishchilar qoʻmitasining raisi, shu bilan birga mahalla oqsoqoli boʻlgan. Aholiga uy-joy uchun tomorqa ajratish, hovlilarni tartib bilan ketma-ketlikda qurish, ravon yoʻllar tushirish ishlariiga rahbar boʻlgan.

1980–1991-yillarda Rahmat bobo Jumayev (1930–2015) brigada boshligʻi, maktabda ota-onalar qoʻmitasi raisi, toʻylarni oʻtkazish uchun chaqirilgan faollar kengashi raisi, mahalla oqsoqoli boʻlgan. Toʻylarni tartibli oʻtkazish, isrofgarchilikka yoʻl qoʻymaslik, aholi tinch-totuv yashashini nazorat qilgan.

1991-yili yurtimizda mahalla qoʻmitasi (hozir mahalla fuqarolar yigʻini) raisi (oqsoqoli) lavozimi joriy etildi. Oʻsha yili mart oyida Turgʻun Normurodov mahalla raisi etib saylangan. Dastlab mahalla raisi shtat birligi boʻlsa-da, oylik ish haqi ajratilmagan.

Mahallamizning birinchi ayol rahbari Nodira Aznarovadir. 2002-yilgacha mahallamizdagi 7-maktabda rus tili fanidan dars bergan. 2002–2007-yillarda Xonchorbogʻ mahallasi, 2007–2010-yillarda Sanchiqul qishloq fuqarolar yigʻini raisi lavozimida ishladi. U oʻtkir zehnlil, talabchan, tirishqoq rahbar edi.

Mahallamizda ilk maktab 1947-yilda Dunyo bobo Xolbekovning uyida ochilgan. Maktab toʻrt yillik boʻlib, darslar rus tilida oʻtilgan. 4-sinfni bitirgan oʻquvchilar tumandagi 11-, 21-, 31-maktablarga borib oʻqishni davom ettirishgan. Oʻquvchilarni Sanchiquldagi 11-maktabga Xudoynazar bobo Arziyev (1916–2010), Saʼdin bobo Aliyev (1934–2003)lar ot-aravada olib borib kelishgan. Aravani qora va qizil rangli otlarga qoʻshgan. Qora rangli otning laqabi “karik”, qizil rangli otning laqabi “qovoq” boʻlgan. Bu ot-arava mahalliy xalq tilida “furgon” deyilgan. 1956-yili maktabimiz oʻzbek tilida oʻqitiladigan maktabga aylantirilgan va 2004-yildan 9-maktab maqomida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ustozimiz Ergash Sulaymonov maktabimiz tarixida yorqin iz qoldirgan. Uzoq yillik faoliyati davomida oʻquvchilarga oʻqib-axloqni oʻrgatib, jamoada sogʻlom muhitni qaror toptirgan. U ishlagan davrda bitiruvchilarning oliy oʻquv yurtiga kirish koʻrsatkichlari boʻyicha maktabimiz tumanda birinchi oʻrinda turgan. Ustozimizning eng yaxshi shogirdlaridan biri otam – Hasan Saxatovdir. Otam oʻquvchilarni ustozining koʻrsatmasi bilan oʻqitdi, taʼlim berdi, rahbarlik faoliyatini olib bordi.

Maktabimizda ilk ayol rahbarlardan biri Zulfiya Barotovadir. U 2005–2012-yillari oʻquv ishlari boʻyicha direktor oʻrinbosari, 2015–2019-yillarda maktab direktori lavozimida ishladi. Maktabimiz reytingining koʻtarilishida uning hissasi katta. Musallam Ahmedova, Anbar Roʻziyeva, Raisa Lazerova, Almera Abdurahmonova, Qandim Xolxoʻjayeva, Shaydo Bobomurodova, Oʻgʻiloy Aliyeva, Sharbatoy Ostonova kabi ustozlarimizning yoʻlini tutib, ularning maslahati bilan pedagogik faoliyatini davom ettirib kelyapti.

Maktabimiz kutubxonasida 1000 dan ortiq badiiy adabiyotlar, “Xalq soʻzi”, “Yangi Oʻzbekiston”, “Maʼrifat”, “Zarafshon”, “Kitob dunyosi”, “Самаркандский вестник” gazetalari taxamlari, adabiy-badiiy jurnallar, bolalar uchun ertak kitoblar, chet el adabiyoti tarjima asarlari va boshqa qimmatli adabiyotlar mavjud. Qolaversa, shaxmat, kurash, stol tennis toʻgaraklari tashkil etilgan. Shaxmat toʻgaragini ustozimiz Akram Sayidov, milliy kurash va sambo toʻgaragini Oʻrol Elmanov, Darxon Yangiboyev, stol tennis toʻgaragini Ubaydulla Abdiyev olib boradi.

Maktabimizning sobiq oʻquvchisi Elnur Saidmurodov 2004-yili tugʻilgan. 2015-yili Samarqand viloyat fut-



bol maktab-internatiga qabul qilindi. Futbol maktabida 2017-yilgacha tahsil oldi. Birinchi murabbiyi Nodir Mardonovdan futbol ilmini oʻrgandi. 2018-yili Samarqand viloyati bolalar va oʻsmirlar futbol akademiyasiga oʻqishga qabul qilindi. Futbol akademiyasida 2018–2021-yillarda toʻp surdi. Murabbiylari Norbek Valiyev, Xurshid Rustamov, Furqat Qudratov, Hakim Fuzaylovlardan toʻp surish, gol urish mahoratini oʻrgangan. Hozirgi vaqtda Samarqandning “Dinamo” futbol klubida toʻp surmoqda.

2015-yilda mahallamizdagi “Yangibod” massivida ustozimiz Mamarasul Rahimov, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, paxtakor Eliboy Taniyevlar rahbarligida 9-maktab filiali tashkil etildi. Maktabimizda 1009 nafar oʻquvchiga 80 nafar oʻqituvchi taʼlim-tarbiya berib kelmoqda. Joriy yilda maktabimiz yangi binoda ish boshlashi rejalashtirilib, davlat dasturiga kiritilgan.

Qayragʻoch qishlogʻidagi 7-maktab tashkil etilishida Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Soli bobo Omonovning hissasi katta boʻlgan. 1963–1973-yillarda maktabda Soli Omonov mudirlik, direktorlik lavozimida ishladi. Shu bois maktab bir necha oʻn yillar Soli bobo Omonov (1920–1973) nomi bilan yuritilgan. Bu maktabga Abduhamid Soliyev, Baxtiyor Saidov, Shodiyor Saidov, Akmal Asqarovlar rahbarlik qilishgan. Hozir ustozimiz Doniyor Sayidov direktorlik lavozimida ishlab kelyapti.

7-maktabning 9-sinf oʻquvchisi Nafosat Qahramonovaning sanʼat sohasidagi yutuqlari tahsinga loyiq. U 2016-yili Pastdargʻom tuman 32-musiqa va sanʼat maktabi xoreografiya boʻlimiga qabul qilindi. Ustozlari Zamira Mirzayeva, Saltanat Sarimsoqovalardan raqs ilmini oʻrgandi. Turli xalqaro tanlovlarda gʻoliblikni qoʻlga kiritdi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori.

1991-yili mahallamiz markazida Alisher Navoiy haykali, “Ona-bola” haykali oʻrnatildi, xotira maydoni ochildi. Mustaqillik bogʻi ham barpo etilgan. 1991–1997-yillarda Xonchorbogʻ jome masjidi faoliyat yuritdi, biroq 1997-yilda qayta roʻyxatdan oʻtkazish vaqti xatlovdan qolib ketdi. Hozir yaxshi sharoitga ega, barcha talablarga javob beradigan masjidda imorat bor, ammo ibodat qilishga ruxsat yoʻq. Musulmonlar diniy idorasi, diniy qoʻmita, viloyat hokimligi yordam qilib, ruxsat berishsa namozxonlarimizga ancha qulaylik yaratilgan boʻlar edi. Mahallamiz ahli duo qilishardi.

2021-yilda “Xolis” koʻchasining 2 km qismi, 7-maktabga borish yoʻliga yangi asfalt yotqizildi. “Imom at-Termiziy” koʻchasiga 1 km masofaga ichimlik suvi tarmogʻi tortilib, “Oriyat”, “Islohot”, “Degrez” koʻchalari aholisi, maktab bolalari toza ichimlik suvi bilan taʼminlandi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida mevali va manzarali daraxt koʻchatlari oʻtqazish ishlari jadal surʼatlarda olib borilayapti. Respublika ahamiyatidagi Juma-Qarshi yoʻlining mahallamiz hududidan oʻtuvchi qismiga ham tungi yoritish chiroqlari oʻrnatildi. Aholini sogʻlomlashtirish, oʻrtacha umr koʻrish yoshini uzaytirish maqsadida fitnes-klub ochildi. Uning yonidagi mini stadion sportchi yoshlar, futbol ixlosmandlari bilan doimo gavjum.

Mahallamizda jami 5580 kishi istiqomat qiladi. U yildan yilga obod, xushmanzara boʻlib bormoqda. Barchamiz tinch-totuv, ahil-inoq yashab kelyapmiz. Doim mehnat bilan bandmiz.

Sharifjon SAXATOV,
Pastdargʻom tumanidagi
9-maktabning tarix fani
oʻqituvchisi



Moziydan sado



Mazkur maqolani gazetxonlarga, ayniqsa, yosh o'quvchilar e'tiboriga bekorga havola etmayapmiz, chunonchi unda Sohibqiron Amir Temur asos solgan va uning shavkatli farzandlari, avlodlari, zurriyotlari tomonidan yuzaga keltirilgan Ikkinchi Renessans davrida xalq sevgan ommaviy o'yinga aylangan "Amir Temur shaxmati" haqida yangicha talqindagi fikrlarni jamlashga harakat qildik. Shuningdek, tariximizning ana shu buyuk davrida yetishib chiqqan juda ko'p taniqli shatranj ustalari to'g'risida ham ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. O'ylaymizki, bugungi shaxmat muxlislariga Amir Temur tomonidan poytaxt Samarqandda katta shaxmat maktabi tashkil etilgani, hozirgi shaxmatga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p, ya'ni 112 katakli shaxmat o'yinining muomalaga kiritilib ommalashgani, sohaga oid bir qancha kitoblar yozilgani-yu va yana boshqa ma'lumotlar sizni befarq qoldirmaydi.

Oqqan daryo yana oqadi

Shaxmat o'yinining odamzod uchun naqadar katta manfaatli ekanligi o'tmish adabiyoti, shoirlar vasfi va boshqa qator asarlarda o'z ifodasini topgan, sharhlangan. Ularda biz bu qiziqarli o'yinga davlat ahamiyati darajasida e'tibor berilganining guvohi bo'lamiz. Buning sababi shundaki, aynan shaxmat o'yini aholi, omma, yoshlar, va eng muhimi, maktab o'quvchilarining fikrlashi, o'ziga e'tibor berishlari, aql bilan ish yuritishlariga sababchi bo'lishini yaxshi bilishgan. Temuriylar Uyg'onish davrining yuzaga kelishida aynan shaxmat o'yinlari ham katta ahamiyatga ega bo'lganini ko'ramiz. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Yildirim Boyazid bilan jang ketayotgan bir paytda ham shaxmat o'ynashda davom etgani haqidagi voqea bugungacha nafaqat bizda, balki butun dunyoda mashhurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan so'ng, sohaning boshqa turlari qatori o'zbek shaxmat maktabi rivojiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ha, "Oqqan daryo yana oqadi". Sohibqiron Amir Temur rivojlantirgan shaxmat sohasi asrlar o'tib, yana shu aziz makonda yuksak pog'onaga ko'tarildi va unga davlat darajasida yanada katta ahamiyat berilayotgani, albatta, Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans davriga mustahkam poydevor qo'yilayotganiga yana bir yorqin dalildir.

"Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq "Maktabda shaxmat" loyihasini amalga oshirish, uning doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shaxmatni o'qitish tizimini yanada rivojlantirish orqali qamrovni yilma-yil oshirib borish, o'quvchilar va maktablar o'rtasida turnirlar o'tkazish; bolalar va o'smirlarning shaxmatga qiziqishini oshirish, uni ommaviylashtirish, bu borada ta'lim muassasalari, mahalla va tashkilotlarda shaxmat bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish; yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh shaxmatchilarni tanlash va saralab olish tizimini tubdan takomillashtirish, ularni bosqichma-bosqich tayyor-garlikdan o'tkazib borish orqali professional shaxmatchi va xalqaro grossmeyster bo'lib yetishishini ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxmatchilarni

Shaxmat – inson tafakkuri mahsuli

O'tmishga qarasak, shaxmatning kashf etilishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Nuh qavmi zurriyotlari, ya'ni bizning ajdodlar shaxmat kelib chiqishini hindlarning "chaturanga" o'yiniga bog'laydilar, bu haqdagi afsona hammaga ma'lum. Ushbu afsona ilmiy manba bo'lolmasligini yaxshi bilsalar-da, shuni takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Bundan boshqa biror so'z bo'lmaganda edi, biz ham shu fikrni takrorlab o'tgan bo'lardik, ammo keyingi asrlardagi tadqiqotlar buning aksini ko'rsatmoqda. Bu haqida biroz to'xtalishga to'g'ri keladi. Bil'aks, shaxmat tarixini o'rganish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va saviyasini oshirishda haqqoniy manbalar alohida o'rin tutadi.

Shu o'rinda biz Yangi O'zbekistonda yangicha qarashlar va haqqoniy, xolis tarixni xalqqa yetkazishga bosh masala sifatida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda shu kungacha shaxmat tarixi haqida yozilgan tarixiy dalillar, aniq manbalarni hamda afsona va rivoyatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish barobarida o'zimizning xulosalarimizni ham bayon etamiz.

1992-yili biz – O'zbekiston televideniyesi ijodiy xodimlari Dalvarzintepada yapon olimi Kato bilan suhbatlashdik. U Kushon davlatining tutgan o'rni hamda yapon xalqi qadimiy izlarining aynan shu yerlarda borli-

gi haqidagi ilmiy dalillarini asoslab gapirdi hamda qiziq bir voqeani so'zlab berdi. Bu voqea shaxmat o'yini bilan bog'liq bo'lgani uchun bizda juda katta qiziqish uyg'otdi. Uning hikoya qilishicha, Kushon podshosining juda go'zal qizi bo'lgan. Uni hurliqo Dalli deb e'zozlashgan. G'anim bostirib kelib, qal'ani o'rab olganda, ana shu go'zal Dalli o'rta tushib, ularni halokatdan qutqarib qolgan ekan. Afsonada Dallining shatranj ustasi bo'lgani va bu o'yin vositasida ham g'animlar bilan kurash olib borgani va bir necha bor ularni yenggani aytiladi.

Ammo afsonalar ilmiy manba bo'lolmaydi. Shunday bo'lsa-da, hind afsonasiga yopishib olganlar shaxmat Hindistonda paydo bo'lgan, degan da'voni ilgari surishadi, hatto ayni paytda bu afsona quloqqa shunchalik qattiq o'nashib, miyamiz devorlariga saqichday mahkam yopishganki, uni tamom inkor etishga qiynalib qolishadi, lekin haq gapni aytganda, hind afsonasi ham taxmindan boshqa narsa emasligi kunday ravshan.

Boshqa tomondan olib qarasak, bu voqega Eronda IV asrda topilgan fil donalari sabab bo'lgani ham izohlab ko'rsatiladi. Unda Kushon podshohligidan oldin ham shaxmatning qadim Turon zaminida mavjud bo'lganligini izohlovchi toifaning bunga shubha bilan qarashlarini ham ta'kidlab o'tmoq kerak. Shunday ekan, Kushon podshohining go'zal qizi Dalli afsonasi ham hind afsonasi bilan birga tilga olinishi kerak emasmi? Ammo fil donalari borligi uchun shaxmat Hindistonda paydo bo'lgan, deya da'vo qiluvchilarning fikrlarini ham inkor etib bo'lmaydi.

Lekin...

1972-yili butun dunyo shaxmat olamida juda katta shov-shuvli voqea sodir bo'ldi va barcha jahon shaxmat ustalari, muxlisleri hamda qiziquvchilarning nigohi O'zbekistonga qaratildi, chunki Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani markazidan 10 km uzoqlikda joylashgan Dalvarzintepa qal'asidan qadimgi shaxmat donalari topilgani barchani chinakamiga hayratga soldi. Xususan, bu to'g'risida O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov shunday degan edi:

"Shaxmat Sharqda dunyoga keldi. Uning vatani Hindiston ekanligi to'g'risida Firdavsiy ham, boshqa tarixchilar ham yozgan. Lekin yapon arxeologlari 1972-yili Dalvarzintepadan topilgan buyumlarga asoslanib, shaxmatning asl vatani shu joylar ekan, degan xulosaga kelishdi... Albatta, bu bilan biz "shaxmat vatani" degan nomni Hindistondan tortib olish niyatimiz yo'g'u, lekin shu manbaning o'zi ham shaxmatning yurtimizda qadim-qadimdan sevib o'ynab kelinganini anglatadi" (Husan Nishonovning suhbat-maqolasidan, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2012-yil, 47-son).

"Amir Temur shaxmati" – yangi kashfiyot

Haqli ravishda aytish kerakki, davlatchiligimizning eng yorqin sahifalaridan biri – Temuriylar davrida shaxmat o'yinlariga yuksak darajada e'tibor berilgan. Sohibqiron Amir Temurning shaxmatga juda katta e'tibor qaratib, bu sohani yuksak darajada rivojlantirgani, o'sha zamondagi eng kuchli shaxmat oliyalari(grossmeysterlar)ni ulug'vor poytaxt Samarqandga to'plab, yosh avlod tarbiyasida ularning ilmlaridan unumli foydalangani, shaxmatga doir bir qancha muhim asarlar yozilishiga turtki bergani uning chinakam zakovatli hukmdor ekanini ochiq ko'rsatadi.

Amir Temur shatranj(shaxmat)ga shunchaki ermak yoki vaqtini xush o'tkazish uchungina emas, balki hozirgi zamon tili bilan aytganda, taktik nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida qaragani manbalarda keltirilgan. U shaxmat o'ynashni zinhor kanda qilmagan, atrofidagilarni ham shunga undagan, o'rgatgan. Temuriylar saroyidagi bu an'ana yillar o'tib uning avlodlari hayotiga ko'chgan va bu davrda bir qator taniqli va iste'dodli

"AMIR
yoxud u

shoir, yozuvchi va olimlar yetishib chiqqan. Ulardan biri Alouddin Tabriziy(keyinchalik Ali Shatranjiy nomi bilan tanilgan) bo'lib, u Samarqandda o'tkazilgan musobaqalarda g'olib chiqqan. U "Shatranj haqida risola" asarini yozib, unda o'zi hamda XIV asrgacha Markaziy Osiyoda yashagan ko'plab oliya(grossmeyster)lar haqida ma'lumot bergan.

Temurbek shaxmatga yoshligidan mehr qo'ygan. Dastavval "aql charxi"ning qonun-qoidalarini otasidan, keyinchalik ustoz shayx Shamsiddin Kuloldan qunt bilan o'rgangan. Kuchli xotirasi uning qisqa vaqt ichida shaxmatning mohir ustasi bo'lishida muhim o'rin tutadi. U

Sohibqironni
yoxud Alisher Navoiy nazdida

"Sultoni vaqt" nomi bilan tanilgan buyuk tariqat arbobi Shayx Abu Sa'id Abulxayr(vaf. 1048-y.) qalamiga mansub "Havroiyya" ruboiysi o'n asr mobaynida ulug' shayxga shuhrat keltirib, tildan tilga, kitobdan kitobga ko'chib yurgan, hattoki bu she'rni ko'pchilik tushunmagani uchun unga sharh tariqasida o'nlab kitoblar yozilgan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da tasavvufning taniqli namoyandalaridan Shayx Abu Sa'id Abulxayrni "Oti Fazlullohdur. Sultoni vaqt va ahli tariqat jamoli erdi va qulub mushrifi. Va aning zamonida barcha mashoyix anga musaxxar erdi", deb e'tirof etgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy bu tabarruk zoti bobarakotning "zikrida qalam ojiz" ekanligini aytib o'tgan.

Bu ulug' shayxning "Havro", ya'ni "Hurlar" so'zi bilan boshlanuvchi "Havroiyya" ruboiysi tasavvuf ahli o'rtasida mashhur bo'lgan:

**Havro ba nazorai nigoram saf zad,
Rizvon ba ajab bimond u kaf bar kaf zad.
On xoli siyah bir on rux mutrf zad,
Abdol zi bim chang dar Mus'haf zad.**

(Tarjimasi: "Hurlar nigorimni ko'rish uchun saf tortdilar. Rizvon(jannat eshikog'asi) ham hayratlanib, qarsak chalib yubordi. U qora xol(mahbuba) yuzlariga parda tortganida abdol (Xudoning xos bandalari, yaqinlari) qo'rquvdan Qur'onga chang soldi).

Adabiyotshunos Zamira Is'hoqovaning yozishicha, "ruboiyning tasavvufiy-irfoniy ma'nosi quyidagichadir: "Haq taologa oshiq-u shaydo bo'lmish kamina(Shayx Abu Sa'id Abulxayr)ning huzuriga jon oluvchi farishta tashrif buyuradi. Jon fido qilmay turib mahbubga yetishmoqlik amri mahol ekanini idrok etuvchi aql shodlikdan qarsak chalib yuboradi. Jon taslim qilish asnosida, odatda, inson yuzida nochorlik va xomushlik alomatlari paydo bo'ladi. Natijada nafsoniy quvvatlar insoniy haqiqat bilan to'qnashadi va mag'lubiyatga uchraydi, ya'ni Ollohga yetishgan oshiqning insoniy haqiqati g'alaba qiladi".

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi tafsilotlaridan anglashiladiki, Sohibqiron bobomiz mazkur ruboiyni yod bilgan. Yanada aniqroq qilib aytisak, Mironshoh mirzoni to'g'ri yo'ldan urganligi uchun o'limga hukm qilingan Xoja Abdulqodir Marog'iy Amir Temurdan qochib, Iroqda yashirinib yurganda, Sohibqiron askarlari tomonidan qo'lga olinadi va o'zini devonalikka solishiga qaramasdan u buyuk sarkarda huzuriga olib kelinadi: "Xoja(Abdulqodir)ning kamolotidin biri Qur'on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un bila Qur'on o'qumoq bunyod qildikim, ul hazrat(Amir Temur)ning g'azabi lutfqa mubaddal bo'lib, fazl va kamol ahli sori boqib, bu misrani (Ruboiyning to'rtinchi misrasi) ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi bim chang bar mus'haf zad.

Ya'ni, "Abdollar qo'rqinchdan Qur'onga chang soldilar" misrasini o'qib, Amir Temur Yaratgan kalomidan najot izlagan Xoja Abdulqodirni afv etadi va Navoiyning yozishicha, oliy majlisiga nadim etib tayinlaydi: "Andin so'ngra Xojaga iltifot va tarbiyatlar qilib, o'z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar, balki qarn(asr)larda mundaq latif so'z voqe bo'lmis".



TEMUR SHAXMATI”

yosh avlodga nima beradi?

usullarni, qaysi raqib bilan qanday o'ynash kerakligi va shaxmat psixologiyasini kuchli o'zlashtiradi. Shamsiddin Kulol yosh shogirdiga shaxmat orqali uzoqni ko'ra olish, rejali, mulohazakor va tadbirkorlik bilan ish yuritish, shaxmat o'yini va haqiqiy hayot o'rtasidagi o'zaro o'xshash jihatlarni payqashni o'rgatadi. Shu bois uning tarixiy g'alalarida shaxmatning o'rni yuqori, deyish mumkin.

Amir Temur harbiy yurishlari chog'ida, jang jara-yonini to'laqonli va aniq idrok eta olish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega edi. U muhim masalalarni shaxmat taxtasi atrofida hal etgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, buyuk sar-

karda haddan ziyod band bo'lishiga qaramay, doimo shaxmat o'ynashga vaqt ajratgan. Misol uchun, davlat ishlari, oila tashvishlari bilan band bo'lganida ham yoki olis mamlakatlarga safarlari, ayovsiz janglar oralig'ida ham shaxmat bilan hamnafas bo'lgan. Chunki shaxmat bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlari o'zida ruhiy xotirjamlik va ishonchni his qilgan, qolaversa, bo'lajak taktik yurishlari reja va g'oyasi ayni shu onlarda tug'ilgan. Manbalarda aytilishicha, u zot o'yin oldidan, albatta, puxta reja tuzgan, ya'ni kerakli kombinatsiyalarni tanlagan, jami imkoniyatlarni chamalab, hisoblab, hatto o'yinni qanday yakunlashni ham rejalashtirib qo'ygan.

Aytishdiki, Sohibqiron Amir Temur doimo shaxmat o'yinida qora donalarni tanlagan? Nima uchun? Aslida aqlli inson ana shunday donolik bilan ish tutadi. Bugun biz “qora” deganda, yomonlikni tushunamiz, lekin qadim turkiy-o'zbek tilida “qora” so'zi “buyuk” degan ma'noni anglatgan, masalan, “qora tosh” degani qorayib ketgan tosh emas, aksincha, “shoh tosh”, “buyuk tosh” degan ma'noni beradi yoki “qorasaroy” so'zi ham “katta saroy” ma'nosini anglatadi. Shu bois, biz bugungi kunda o'z tariximizni asl holda xalqqa qaytarayotgan ekanmiz, masalaning ana shu nozik jihatlarini ham nazarimizdan qochirmasligimiz kerak.

Bu mulohazalardan so'ng, “Amir Temur nima uchun o'yinni qora donalar bilan boshlagan”, degan savolga javob berishimiz oydinlashadi, chunki u zot “qora donalar”da o'ziga xoslik, teranlik, buyuklikni his etgan.

Shaxmat qoidasiga ko'ra, o'yinni “qora”lar emas, “oq”lar boshlaydi. Ana endi masala ancha oydinlashadi, chunonchi oq donalar tashabbus va imtiyozlarga egaligi bilan ajralib turadi, “qora”lar esa ularning zarbasiga qarshi javob qaytarishi kerak. Amir Temurning asl maqsadi ham shu: oq dona surgan raqibining hujum qilishiga, niyatini ochiq ko'rsatishiga imkon bergan, ya'ni bundan shunday oqilona xulosa chiqadiki, buyuk sarkarda “qora” donalar orqali mustahkam mudofaani yo'lga qo'yib, “oq”larning har qanday hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchrashini oldindan his etgan, ko'ra bilgan.

Shu bois ham, muarrixlar guvohlik berishadiki, harb ilmini shatranj ko'magida takomillashtirishni istagan Sohibqiron Amir Temur shaxmat qonun-qoidalarini isloh etib, murakkab shaxmat turini tuzgan va amalda qo'llagan, unga “Shatranji komil”(asl shaxmat), “Shatranj al-kabir”(katta shaxmat) nomini bergan. Bugungi kunda ham Amir Temur tomonidan o'ylab topilgan bu tarixiy shaxmat turi “Temur shaxmati” nomi bilan mashhurdir.

Buning isbotini nimalarda, qaysi tarixiy manbalarda ko'rishimiz mumkin? Birinchi navbatda, bu manbalar Amir Temur ko'rsatmasi va tashabbusi bilan poytaxt Samarqandda yashagan Alouddin Tabriziyning shaxmat o'yinlari to'g'risida 16 tadan ortiq ilmiy risola, asar, kitoblarida, mashhur tarixchi Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asarida, shuningdek, 1825-yili amerikalik yozuvchi Vashington Irvingning “Muhammadning hayoti” kito-bidagi Amir Temur hayoti bilan bog'liq voqealar tafsiloti bilan birgalikda u zotning shaxmat borasida fikrlari haqida aytgan bayonlaridan, 1868-yili fors olimi hoji Xalifaning Amir Temur shaxmati va uning qonun-qoidalarini haqida yozib qoldirgan ma'lumotlaridan, 1850-yili Rossiya-ni Peterburg universiteti matematika professori, shaxmat nazariyotchisi K.Yanishning Amir Temur shaxmati haqidagi mansubasidan bilishimiz mumkin.

Farqi nimada?

Buyuk sarkarda yaratgan shaxmatning zamonaviy shaxmatdan farqi shundaki, Temur shaxmati taxtasi ovalsimon ko'rinishda bo'lib, katak xonalari bir xil rangda bo'lgan, o'n qator, o'n bir ustun va 112 katakdan iborat (zamonaviy shaxmat esa 64 katak va 8 ustun hamda qatorga bo'lingan). Shaxmat taxtasiga ikkita qo'shimcha katak ham qo'shilgan. Ulardan biri chapdagi o'ninchi, ikkinchisi esa o'ngdagi ikkinchi qatorda. Bu qo'shimcha ikkita katak o'yin davomida suyanch “qo'rg'oncha” vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan va u mazkur shaxmat turida juda muhim o'rin tutgan. Boshqacha aytganda, “qo'rg'oncha”, “shoh” uchun boshpana yoki chekinish yo'li funksiyasini bajar-

gan. “Shoh”dan tashqari, boshqa sipohlar “qo'rg'oncha”-ga kirish huquqiga ega bo'lmagan. Ahamiyatlisi, o'yin davomida qaysidir shaxmatchi o'z “shoh”ini raqibning “qo'rg'oncha”siga joylashtirsa, o'yin durang natija bilan yakuniga yetgan.

Ma'lumki, odatdagi shaxmatda “piyoda”larning imkoniyati ham, yurish qoidalarini ham bir xil. Amir Temur shaxmatida esa “piyoda” sipohlar ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, “piyoda-shoh”, “piyoda-vazir”, “piyoda-qo'mondon” kabi, shuningdek, “piyoda-piyoda” sipohi ham mavjud edi. Ammo mazkur shaxmat turi qaysidir davrda izzisiz yo'qolib ketgan, bugun esa shaxmat ustalari va muxlislariga uning ayrim qonun-qoidalarini ma'lum, xolos.

Shuningdek, Temur shaxmatida qo'shimcha “vazir”, “jirafa”, “tuya” va “dabboba” donalari mavjud. Vazir xohlagan yo'nalish bo'yicha bitta katakka harakatlanadi. Jirafa(Zurofa) – diagonal bo'yicha bitta katak, so'ngra gorizontal va vertikal yo'nalishda istalgan katakka yuradi. Tuya(Jamal) – vertikal yoki gorizontal yo'nalish bo'yicha uchta katak, so'ng to'g'ri burchak ostida bitta katakka yuradi, ya'ni ot donasi singari katta “I” singari harakatlanadi. Katapulta(Dabboba) – vertikal yoki gorizontal yo'nalish bo'yicha ikkita katakka yuradi.

Ibn Arabshoh “Amir Temur shaxmati” haqida

Ibn Arabshohning 1436-1437-yillarda yozgan “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur”(“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asarida XV asr Amir Temur zamonida faoliyat olib borgan shaxmat ustalari, umuman, shaxmat haqida hikoyalar keltirilgan.

Bundan tashqari, Ibn Arabshoh 1401–1408-yillarda Amir Temur davrida yashagan mohir shaxmatchilarning ba'zilar haqida ma'lumot beradi. “Shatranjchilardan Muhammad ibn Aql al-Xaymi va Zayn Yazdiy va boshqalar. Sharq xalqlari tarixiga oid o'ndan ortiq asar yozib qoldirgan Xondamir ham o'zining “Habib us-siyar” asarida Amir Temur va temuriylarga zamondosh bo'lgan shatranj ustalari haqida qiziqarli manbalarni bayon etgan. “Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor”(“Xayrli kishilar ahvolidajahon) xabarlarining xulosasi”) asarida shaxmat o'yini bilan bog'liq hikoyalar ham kiritilgan va buning ahamiyati shundaki, bu voqeani shaxsan o'zi ko'rib, eshitib, aniq yozganki, biz uchun u tarixiy manba sifatida juda qadrlidir.

Yoshlarimiz bilib qo'yisinlarki, shaxmat bo'yicha grossmeysterlar o'sha paytlarda ham bo'lgan, faqat ular “oliyalar” deb atalgan. Demak, grossmeyster degan so'z bizga chetdan kirib kelmagan, aksincha, Yevropaga borib, u “grossmeyster” shaklini olgan va bizga shu nom bilan qaytib kelgan.

Jahonda o'z o'rni bor

Bugun o'zbek shaxmatining jahonda o'z o'rni, o'ziga xos salohiyati, obro'si, mavqeyi bor. Mamlakatimizda eng ommaviy sport turlaridan biri ham shaxmatdir: qaysi qishloq, shahar, tashkilot, muassasa yo korxonaga bormang, u yerlarning o'z shaxmat ustalari, ustozlarini uchratasiz, hatto goho ko'chalarda, dam olish bog'larida shaxmat bilan mashg'ul odamlarni ko'rasiz. Chunonchi, biz zamonaviy mamlakat, yangi tamaddun, yangi dunyoqarash va yangi kelajak sari dadil intilayotgan xalqmiz. Toshkentning Eski shahar qismida bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazida “Amir Temur shaxmati”ning tiklangan nusxasi uchun maxsus o'rin ajratilgani ham bejiz emas. Bu, avvalo, insoniyatning tamaddun beshiklaridan biri bo'lmish qadim o'lka – O'zbekiston hududida o'tmishda shaxmat maktablarining mavjud bo'lgani va u ommaviy ravishda o'ynalgani, ulug' ajdodlarning tinchlikka, o'zaro ahil va inoq yashashga bo'lgan intilishlarining namunasidir.

Yurtimiz shaxmat tarixi uzoq mingyilliklarga borib taqalar ekan, XIV–XVI asrlarda yurtimizda yuzaga kelgan Ikkinchi Renessans davri shaxmat maktabi va bu davrda ko'zga ko'ringan shaxmat ustalarining hayotini o'rganish, ularning boy ilmiy merosini yoshlarga yetkazish, dunyoga tarannum etish vazifamiz, burchimizdir. Zero, shaxmat nafaqat ongni charxlab, tafakkurni o'stiradi, balki odamzodni jiddiy fikrlashga chorlab, tinchlik va taraqqiyotga ham boshlab boradi.

To'lqin HAYIT

maftun etgan ruboiy

Amir Temur siymosi

Ushbu voqea ham ma'rifatli hukmdor Sohibqiron Amir Temurning ko'plab diniy-tasavvufiy badiiy asarlarini mutolaa qilganligini, chuqur bilim va keng tafakkurga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, Sohibqiron Jaloliddin Rumiyni “Masnaviyi ma'naviy” va Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” asarlarini ham o'qigan.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Amir Temur she'r yozmagan bo'lsa-da, biroq kezi kelganda ko'plab shoirlarning she'rlaridan hamda nasriy asarlardan misollar keltirganini ta'kidlab, majlislarda “paydar-pay xub abyot va yaxshi so'zlar darhamal” aytgan, degan: *“Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming bayt aytqoncha bor”*. Ya'ni, birinchi temurshunos Alisher Navoiy aytmoqchi, islom podshohi Amir Temurning bir bayt o'qigani ming bayt yozgan bilan barobar! Bu bilan Navoiy Temurbek mumtoz adabiyotdan xabardor nihoyatda mutafakkir hukmdor bo'lganligini uqtirmoqda.

Shoirlar sultonining o'zi ham yoddan bilgan ushbu ruboiyga “Nasoyim ul-muhabbat”da ulug' avliyolar sharh yozganiga urg'u bergan: *“Va ba'zi akobir sharhlar bitibdirlar”*. Ruboiyga Xoja Ubaydulloh Ahror valiy ham tasavvuf tili bilan sharh yozgan. “Xoja Ahror Valiy” risolasida yozilishicha, atfidan muhaqqiqlar tomonidan yozilgan sharhlar ruboiyning haqiqiy ma'nosini to'la ochib bera olmagan uchun Xoja Ahrorni qoniqtirmagan. Shuning uchun u “Risolayi havroiyya yoki Sharhi ruboiyi Shayx Abu Sa'id Abulxayr” nomli asar yaratgan. Tasavvuf ahli o'rtasida juda mashhur bo'lgan bu ruboiyni akademik Botir Valixojayevga ko'ra, Sayyid Ne'matulloh Valiy uch risola, Sayid Qosim Anvor, Mavlono Ya'qub Charxiy va Shayx Ozariylar bittadan kitob yozib, sharhlaganlar. Bizningcha, Sohibqironning ruboiyga yozilgan sharhlardan ham xabari bo'lgan. Ehtimol u she'r sharhlangan risolalardan birini o'qigan.

Xo'sh, asrlar mobaynida darvesh ahlini hayratga solgan bu ruboiy yozilishiga nima sabab bo'lgan? Tadqiqotchi Nodir Ramazonovning yozishicha, kunlardan bir kun Shayx Abu Sa'id Abulxayrning muridlaridan bo'lgan Ustod Abu Solih qattiq kasal bo'lib, to'shakka yotib qoladi. Shunda ulug' Shayx Xoja Abubakr Muaddab ismli shogirdiga davot, qalam va qog'oz keltirishni buyuradi. Abu Sa'id Abulxayr esa yuqoridagi ruboiyni badihatan aytadi, shogirdi esa uni oqqa ko'chiradi. Ruboiyni to'shakda yotgan Abu Solih ustida o'qiydilar va qog'ozni uning tanasiga bog'lab qo'yadilar. Shundan so'ng Abu Solih shu kunning o'zidayoq sog'ayib, o'rnidan turib ketadi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da ruboiyning shifobaxsh ekanligini ham qayd etgan: *“Hamul dastur bila bu ruboiyni soyir marazi(kasallik)ga o'qurlar va naf' yetkururlar”*. Shuning uchun asrlar mobaynida bu ruboiyni o'qib, darveshlar(oddii odamlar ham) dardlariga davo topishgan.

Muxtasar aytganda, Sohibqiron Amir Temur nafaqat tarixiy kitoblar, balki o'z davrining mashhur badiiy asarlarini qo'ldan qo'ymay o'qigan va u *“Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiy”*, deb bilgan.

Sherxon QORAYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Moziydan sado



“Nega faqat Amir Temur?” sarlavhali salmoqli maqolada(“Ma’rifat”, 2026, 4-mart soni) Temur va temuriylarga muqobil ravishda Shayboniynoma va uning sulolasi qanoatlanarli darajada o’rganilmay kelayotganligi, ularning milliy tariximizda tutgan o’rniga yetarli baho berilmayotganligi haqida fikr yuritilgan. Tarixni tarixchilar tomonidan o’rganish nuqtayi nazaridan haqiqatan ham shunday bo’lsa kerak. Lekin adabiyotshunoslikda “Shayboniynoma” dostoni va uning muallifi Muhammad Solih ijodiy faoliyati tadqiqi jihatidan Shayboniynoma siymosi yoritilgan. Yoritilganda ham, Shayboniynonning tarafdori, uning saltanatidagi shoir va davlat arbobi bahosi asosida yoritilgan. Buni, ma’lum darajada, xolis baho sifatida qabul qilish mumkindir balki.

1989-yili 5–11-sinflar uchun yangi “O’zbek adabiyoti” dastur va darsliklari yaratilganida “Shayboniynoma” dostonini birinchi marta biz adabiy ta’limga tatbiq etdik. 10-sinf adabiyot dasturida “Shayboniynoma” va uning muallifi Muhammad Solih hayoti va ijodini o’rganish uchun 2 dars soati ajratildi. Ushbu mavzu darslikka, “Shayboniynoma”dan katta bir parcha esa majmua kitobiga kiritildi. Mazkur mavzu va matnlarni izohlari bilan yoritish kaminaning chekiga tushdi(*Begali Qosimov, Nusratullo Jumaxo’ja. O’zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik. “O’qituvchi”, Toshkent, 2000-yil. Adadi 25 000 nusxa. 148–157-betlar. O’zbek adabiyoti. Majmua. 10-sinf uchun. “O’qituvchi”, Toshkent, 1993. Adadi 400 000 nusxa. 150–180-betlar*). Bu darslik va majmua 4 marta qayta nashr etildi. Ko’p yillar 40 000 nafar ona tili va adabiyot o’qituvchisi 400 000 10-sinf o’quvchisiga shu darslik va majmua asosida ta’lim berdi. Bu Shayboniynon siymosi umumxalq ongiga singdirildi degan gap. Ammo, afsuski, 9 yillik ta’limga o’tish munosabati bilan dastur va darsliklar taqdiri boshqa qo’lga o’tgach, “Shayboniynoma” ta’lim jara-yonidan chiqarildi. Bu darslik, majmua ham xalq ta’limi tasarrufidan to’xtatildi. Bundan ham achinarli hol shuki, bir muddat malaka oshirish institutida ishlaganimda, o’qituvchilardan so’rasam, adabiy ta’limni yangilash maqsadida, tadqiqot uslubida yaratilgan bu darsliklar avlodi, o’rnatilgan tartibga binoan, tasarrufdan chiqarilib, utelga berib yuborilgan, maktab kutubxonalarida saqlanmas emish.

Xo’sh, Muhammad Solih kim edi va u nima maqsadda Shayboniynon haqida ulkan tarixiy doston yaratdi?

Muhammad Solih o’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridandir. Adabiyotimiz tarixiga iste’dodli shoir sifatida kirgan Muhammad Solihdan bizgacha yirik epik asar – “Shayboniynoma” yetib kelgan. Shoirning o’zbek va fors tillarida yaratgan she’rlaridan bir qancha namunalar saqlanib qolgan.

Jami 76 bob, 8902 misradan tashkil topgan(*Navoyi dostonlari darajasidagi hajm!*) “Shayboniynoma” dostoni madaniy mero-simizning maxsus o’rganishga sazovor namunalaridandir. Ushbu asar hajm e’tibori bilangina emas, balki milliy adabiyotimiz tarixida birinchi tarixiy dostonligi, temuriylar sulolasi bilan shayboniylar sulolasi o’rtasidagi ayovsiz kurash manzaralarini tasvirlashi, temuriylar tanazzuli va shayboniylar tantanasining badiiy in’ikosi sifatida qimmatli yodgorlikdir. Ayni paytda, bu asar Muhammad Solih faoliyatidagi maddohlik, tarafkashlik, tarixiy haqiqatni biryoqlama yoritish tamoyillaridan, Amir Temur yaratgan buyuk davlatchilikning barbod bo’lishi, milliy parchalanish, mustahkam davlat va jamiyatning parokan-

dalikka uchrashi kabi fojialardan achchiq saboq beruvchi badiiy solnomadir.

Muhammad Solih 1455-yili temuriylar saltanatiga mansub Xorazmda tug’ilgan. Solihning bobosi Amir Shoh Malik temuriylar sulolasida katta e’tibor qozongan amirlardan bo’lib, Ulug’bekka vasiylik va murabbiylik qilardi. Otasi Nur Saidbek Ulug’bek, Jo’gi Mirzo, Abusaid Mirzo saroylarida davlat ishlarida xizmat qilib, obro’ orttirgan. Ancha vaqt Abusaid Mirzoga qarashli Xorazmda hokimlik qilgan. 1469-yil Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganda, Abusaid Mirzoning bir qancha yaqin amir va beklari qatori amir Nur Said ham jazoga tortiladi va qatl etiladi.

Bundan keyingi taqdirini shoir o’z “Shayboniynoma”sida shunday tasvirlaydi:

Laqabi Solih-u, o’zi tolih,
Nur Said o’g’li Muhammad Solih.
Mundoq ayturki, Xudodin taqdir,
Chun otam ishig’a berdi tag’yir –
Chiqdi Xorazm diyori qo’lidin,
Xevaqu Kot hisori qo’lidin,
Tushti andin guzori Marv sori,
Anda sovrildi evu eli bori,
Ayladi no’sh shahodat jomi.
Mani gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g’am ichra muqim.
Xorliqlar bilan o’stum bisyor,
Zorlig’lar bila ko’rdum ozor.
Har falokatki, bo’lur dunyoda,
Hech qaysidin eman ozoda.
Gah Xuroson aro qildim manzil,
Gah Samarqandg’a bo’ldum moyil.
...Dedilar barcha manga donolar
Kim: “Adam bo’lg’usidur mirzolar.
Davlati oli Temur ketgusidur,
Navbat o’zga kishiga etgusidur.
Ul kishi bordur Shayboniynon,
Xoni Shaybonduru Mahdiyi zamon...

Darvoqe, Muhammad Solih o’zining achchiq qismati uchun temuriylardan qat-tiq ranjidi, bu sulolaning tanazzuliga ko’z tutdi, bo’lajak o’zga bir hukmdordan najot tiladi, umrining oxirlarigacha temuriylarga qayishmadi. U 1499-yili temuriylar saroyidan ketdi va Shayboniynon tomoniga o’tdi. Shayboniynon uni yaxshi kutib oldi va o’z saroyida amir ul-umaro, ya’ni amirlar amiri, malik ush-shuaro, ya’ni shoirlar shohi maqomiga ko’tardi. Muhammad Solih rasmiy davlat ishlarida va harbiy safarlarda Shayboniynonning faol hamrohiga aylandi. Shayboniynon 1500-yili Buxoroni zabt etib, Samarqand safariga otlanganida, vaqtincha, vazifasini Muhammad Solih bajarib turdi, ya’ni hokimlik qildi. U biroz muddat Qunduz shahrida ham faoliyat ko’rsatdi. 1504-yili Shayboniynonning ukasi Sulton Mahmud vafot etdi. Muhammad Solih Shayboniynonning ruxsati bilan Buxoroga bordi. Shayboniy 1504-1505-yillari Xorazmga hujum boshlaydi. Shayboniy lashkari Buxorodan

“Shayboniynoma”da

chiqib, Qorako’lga yetganida, Chorjo’y hokimi Amir Yorali jangsiz taslim bo’ldi. Shayboniynon Chorjo’yga Muhammad Solihni shahar hokimi etib tayinladi. Muhammad Solih Chorjo’yda Shayboniynon hokimiyatini mustahkamlagach, hukmdori ortidan Xorazmga jo’nadi. Xorazm hokimi Chin So’fi Husayn Boyqarodan madad so’ragach, Husayn Boyqaro Shayboniynonni chalg’itish maqsadida Qunduz, Chorjo’y va boshqa hududlarga hujum uyushtirdi. Muhammad Solih zudlik bilan Chorjo’yga qaytib, hokimiyatni mustahkamlaydi, mudofaaga tayyorlanadi. Temuriylar Muhammad Solihni o’zlariga og’dirish uchun elchi yuborganlarida, u qat’iy bosh tortib, bunday deydi:

Men dedim: “Sizga javobim o’qtur,
Mundin o’zga base so’zum yo’qtur,
Javringizdan otam o’ldi, netayin?
Boshima qayg’u o’kaldi, netayin?
Men otam qoni uchun otlanaman,
Men o’zim jonim uchun qotlanaman...”

Muhammad Solih 1505-yilning oxiri, 1506-yilning boshlarida Ashxabad yaqinidagi Niso shahri hokimligiga tayinlanadi. 1510-1511-yillargacha shu shaharda yashadi. Muhammad Solih Shayboniynonning vafotidan so’ng Buxoroga qaytdi va umrining oxirigacha faoliyat ko’rsatib, 1535-yilda o’sha yerda vafot etdi.

Shunday qilib, Muhammad Solihning hayoti va faoliyati boshdan oyoq davlat ishlarida, jang-u jadallarda o’tdi. Shu sababdan uning shoirona shaxsiyati murakkab suratda shakllandi. Undagi temuriylarga qasoskorlik tuyg’usi tarixni xolis yoritishga imkon bermadi. Ijodning jang-u jadallarda kechishi Muhammad Solih she’riyatining badiiy saviyasiga ham o’z nuqsini urdi.

Muhammad Solihning shaxsiyati va ijodiy salohiyati haqida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning fikrlari diqqatga sazovordir.

“Majolis un-nafoyis”dan:

Ismi munosabati bila “Solih” taxallus qilur. Nur Saidbekning o’g’lidurkim, ko’p vaqtlarChahorjo’ynavohiysidin(*Navohiy-nohiya, muayyan hudud, o’lka*) Adoq navohiysig’a degincha amorat(*Amorat – amirlik*) qildi va Sulton Abu Said Mirzo eshigida, Ulug’bek va Jo’gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk- (*Jumlat ul-mulk – butun mamlakat; bu yerda butun mamlakatga so’zi o’tadigan ma’nosida*) erdi. Ammo (Shu o’rinda “otasi” so’zi tushib qolgan bo’lsa kerak. Aks holda, Muhammad Solih tavsifi ziddiyatli chiqardi. Nashrlarda bunga e’tibor berilmagan-N.J.) bag’oyat badfe’l va badxulq kishi erdi. O’zi muloyim yigitdur. Atvori-ning otasi atvorig’a nisbati(*Nisbat – yaqinlik, o’xshashlik, aloqa*) yo’qtur. Anga ham g’arib sahv(*Sahv – xato; unutish*) tushitikim, Sulton Sohibqiron(*Sulton Sohibqiron – Husayn Boyqaro*) qullug’idin g’aybat(*G’aybat – ko’zga ko’rinmaslik, yashirinish*) ixtiyor qildi. Ba’zi derlarkim, bexudlig’(*Bexudlig’ – hushsizlik, devonalik, aqlsizlik*)olamida yamon musohiblar(*Musohib – hamsuhbat, do’sst, ulfat*) ani bu yamon yo’lg’a tutubturlar. Tab’ida xeyli diqqat bila choshni(*Choshni – maza, ta’m, tot; totish; bahra*) bor. Xatqa ham qobiliyati ko’pdur...

“Boburnoma”dan:

...Muhammad Solihni anda Xoja(*Xoja – Xoja Ahror Ubaydullo*) xizmatida

ko’rdim. Muhammad Solihni o’shal bir qatla-o’q ko’rdim...

(*Husayn Boyqaro saroyidagi shoir-lardan*) Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g’azallari bor, agarchi hamvorlig’i(*Hamvorlig’ – bir tekislik (ijodda bir darajada tura bilish)*) choshnisicha yo’qtur, turki she’ri ham bor, yomon aytmaydur. So’ngra Shayboniynon qoshig’a kelib edi, filjumla(*Filjumla – qisqasi, xullas*) rioyat qilib edi. Shayboniynon (haqida) bir turki masnaviy bitibtur, ramali musaddasi maxbun vaznidakim, “Subha” (*Subha – asar nomi*) vazni bo’lg’ay, bisyor sustu furudtur(*Sustu furud – bo’sh va past darajada*), ani o’qug’an kishi Muhammad Solihning she’ridin bee’tiqod bo’lur. Bir yaxshi bayti budur:

Bo’ldi Tanbalg’a vatan Farg’ona,
Qildi Farg’onani tanbalxona...

Sharir(*Sharir – yomon, yaramas*) va zolimtab’ va berahm kishi edi.

TEMURIYLAR TANQIDI VA SHAYBONIYNON MADHI

Muhammad Solih butun faoliyati davrida temuriylarga qarshi dilida alam, qo’lida qalam va qilich bilan kurashdi. “Shayboniynoma”da temuriylarni tanqid qila borib, ularni yerga urish, masxaralash darajasiga yetdi. Shayboniynonni esa ko’kka ko’tarib maqtab, ilohiylashtirdi. Darhaqiqat, temuriylarning o’sha davrdagi ahvoli raqibning bunday tahqiromuz munosabatiga ma’lum darajada asos berardi. Muhammad Solihning mana bu so’zlari ijtimoiy hayot haqiqatiga mos edi:

...Bu jamoatki, ko’rarsan holo,
Tana-tirno bila boshlab g’avg’o,
Ichadurlar kecha-kunduz boda,
Din-u iymon soridin ozoda.
Bir-biri birla muxolif barcha,
Bir-biridin taqi xoyif barcha.
Atodin bordur o’g’ul noxushnud,
Atoni o’g’ul etoy der nobud.
Ato ham bordur o’g’uldin bezor,
O’lturur o’g’lini yig’latib zor...
Qaydakim chodirini tikdi nifoq,
Qolmas ul tegrada osori vifoq.
Mulk ilgidin chiqar-u taxt ila toj,
Taxt-u toj ahlin etarlar ixroj.

Shoir bu so’zlarida temuriylarning aysh-ishratga berilganlari, o’zaro taxt talashishlari, murosasizliklari, mehr-oqibatsizliklarini nazarda tutgan va bu bilan ularning tarixiy inqirozlari sabablarini fosh etgan edi. Bu misralarda temuriylar inqirozi sabablarigina emas, balki ijtimoiy hayot qonuniyati, ayniqsa, “Qaydakim chodirini tikdi nifoq, Qolmas ul tegrada osori vifoq” satrlarida o’zining yaqqol falsafiy-badiiy ifodasini topgan.

Albatta, biz mutolaa mobaynida biryoqlama talqinlarga tanqidiy munosabatda bo’lmog’imiz, tarixiy haqiqatga asoslanib xulosa chiqarmog’imiz lozim.

Temuriylar tasviriga teskari o’laroq, “Shayboniynoma”da Shayboniynon ilohiy siymo sifatida haddan ortiq madh etiladi:

Tengrining soyasi Shayboniynon
Kim, ani qo’ydi xalifa Rahmon.
G’aybdin oti Muhammad bo’ldi,
Qobili davlati sarmad bo’ldi.
Barchaning yaxshilig’i oning qoshida,
Barchaning davlati oning boshida.

“BOBURNOMA”DA MIRZO ULUG‘BEK HAQIDA



“Boburnoma” asari tarixiy-adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e’tiborliki, asarda ko‘plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san’at ahlari, din ahlari, shoh va shahzodalar, beklar, amir-u umarolar haqida ma’lumot beriladi. “Boburnoma”da hammasi bo‘lib 1540 nafar kishi nomi tilga olingan. Shundan 357 nafari movarounnahrlik tarixiy shaxslar. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslardir.

Movarounnahrlik 357 nafar tarixiy shaxs turli toifa kishilaridan iborat. Jumladan, 5 nafari amir va amirzodalar; 20 nafari shoh va shahzodalar; 42 nafari malika va shoh qizlari; 52 nafari umaro, qo‘shin boshliqlari va beklar; 21 nafari din va tasavvuf egalari; 30 nafari ilm-fan va adabiyot ahlari; 187 turli xos kishilar – askarlar, dehqonlar, san’at ahlari, hunarmandlar, qullar, yog‘iylarning nomlari tilga olingan va sharhlab berilgan. “Boburnoma”da Mirzo Ulug‘bek nomi 9 o‘rinda tilga olingan. Aksar o‘rinlarda tarixiy shaxslar, ular bilan bog‘liq jihatlar tilga olinsa, asosan Samarqand tasvirida Ulug‘bek faoliyati batafsil yoritiladi. Dastlab, Umarshayx mirzoning “xavotun va sarori” bayonida o‘z onasi Qutlug‘ Nigorxonim haqida fikr yuritir ekan, bobosi Yunusxonning nasabiga ham batafsil to‘xtaladi. “Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslindindur”, deb uning yetti pushtini birma-bir sanab o‘tadi, ya’ni “Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali o‘g‘lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug‘luq Temurxon ibn Esan Bo‘g‘axon ibn Do‘vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mo‘tugon ibn Chig‘atoyxon ibn Chingizxon” (Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: ШАРК, 2002. 38-39 betlar. (Keyingi misollar shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi).

Shu qismda Bobur mo‘g‘ul ulusi-ning ikkiga bo‘linishi va Mirzo Ulug‘bek Yunusxonni quvvatlagani haqida yozadi. Ulug‘bek Yunusxonga yon bosib, Esan (asarda Erzan tarzda berilgan) Bo‘g‘axonga muruvvat qilmaydi. Ulug‘bek Yunusxonni 13 yoshida Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasiga bergan edi. Yunusxon yigirma yil shu dargohda tarbiya topgan. Bobur Sulton Ahmad mirzoning umarolaridan biri bo‘lgan Sayyid Yusuf haqida ma’lumot berar ekan, shu o‘rinda uning otasi Ulug‘bek mirzoga xizmat qilganini eslatadi. Ra’y va tadbirda mohir kishi ekanini ta’kidlaydi[Boburnoma, 46-bet].

Samarqand tasvirida Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning barpo etgan imoratlari, bog‘lari to‘g‘risida to‘xtaladi. Samarqandning arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solgan, to‘rt qavatli. Ko‘ksaroy nomi bilan ma’lum va mashhur. Ohanin darvozasi yaqinida toshdan barpo etilgan jome’ masjid ham tilga olinadi. Uning peshtoqida “Va’iz yarfau Ibrohim al-qavoida (ila oxirih)” oyati yirik harflar bilan yozib qo‘yilgan. Temurning Samarqandda Bog‘i Bo‘ldu va Bog‘i Dilkushoni qurdirgani aytiladi. Dilkusho bog‘idagi ko‘shkka Temurbekning Hindistonda bo‘lgan jang tas-

virlari chizilgan. Bobur Naqshi Jahon, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Behishtni ham sanab o‘tadi.

Asarda Ulug‘bekning me’moriy merosi haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Ulug‘bek mirzo Samarqand qal’asi ichida madrasa va xonaqoh barpo etgan. Xonaqohning gumbazi juda katta bo‘lib, bunday gumbaz dunyoda yo‘q, deydi Bobur. Ulug‘bek Samarqand va Xurosonda tengi yo‘q hammom qurdirgan. Muqatta’ (bo‘laklangan, taroshlangan) nomli masjid va uning nomlanishi haqida ham ma’lumot beradi. Masjidning qiblasini aniqlashda munajjim usulidan (astronomik yo‘sinda) foydalangani aytiladi. Ko‘hak tepaligidagi rasadxona hozirgi Ulug‘bek observatoriyasi. Bobur bu rasadxonani “ziji bitmakning maskani” deb ataydi. Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” jadvalini tuzgani va bu jadval butun olamda amalda ekanini ta’kidlaydi. Bobur aniq fanlarni yaxshi bilgani mazkur o‘rinda keltirilgan asosli ilmiy ma’lumotlar orqali anglashiladi. Jumladan, Bobur dunyo bo‘yicha yetti-sakkiz rasad tuzilganini aytib o‘tib, ulardan:

“Ziji Elxoniy”;

“Ziji Ma’muniy”;

“Ziji Batlimus”;

“Ziji Bikramajit”larni sanab o‘tadi.

Bobur tilga olgan astronomik jadvallardan eng mukammali “Ziji Ko‘ragoniy” ekani ma’lum. Yana Ko‘hak tepaligida joylashgan Bog‘i Maydonning o‘rtasida Chilsutun degan imorat qad ko‘targan. Bu imorat ikki qavatli bo‘lib, toshdan yasalgan 40 ustundan iborat. Uning to‘rt ayvoni va to‘rt eshigi bor. Butun imorat toshdan yasalgan. Yana bir kichik bog‘ bo‘lib, unda toshdan yasalgan taxt bor. Bu tosh taxtning uzunligi 14-15 qari (Qari – qadimgi turkiy yozma manbalarda hamda hozirgi qirg‘iz, qoraqalpoq kabi turkiy tillarda qo‘l uchidan tirsakacha bo‘lgan uzunlikni ifodalovchi so‘z. Bu so‘z kelib chiqishi jihatidan “tirsak” (keng ma’noda qo‘l) so‘zi bilan aloqador), eni 7-8 qari, bo‘yi bir qari. Bog‘da yana bir chordara imorat bo‘lib, devorlarining tashqi bezagi chinnidan yasalgan. Bu chinnilar Xitoydan keltirilgan. Shu bois bu binoni Chinnixon deb ataydilar. Bobur Samarqand qal’asining ichida qadimiylar imorat borligi haqida aytib o‘tgan. Bu masjidni Laqlaqa deydi. Uning gumbazi tepasidan tepsalar, gumbazdan “laq”, “laq” degan tovush keladi. Bu qiziq hodisa. Buning sirini hech kim bilmaydi. “Boburnoma”da Samarqand tarixi bilan bog‘liq juda ko‘p ma’lumotlar keltirilganki, bu temuriylar davri tarixini

o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobur Samarqand taxtini Temurbekdan keyin Mahmud Sulton, uning o‘g‘li Jahongir Sulton qo‘lga olgani, Shohrux mirzo butun Movarounnahrni ulug‘ o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekka berganini yozadi. O‘sha vaqtda Ulug‘bek 18 yoshda edi. Ma’lumki, Ulug‘bek davrida ilm-fan, madaniyat va san’at taraqqiy etib, xalq farovonligi ta’minlangan. Ko‘plab tarixiy manbalar qatori “Boburnoma”da ham Ulug‘bekning ma’rifatli, donishmand podsho bo‘lganligi e’tirof etilgan.

Bobur Samarqandni batafsil ta’riflab, Ulug‘bek mirzo o‘g‘li Abdullatif tomonidan o‘ldirilishini achinish bilan yozadi. Besh kunlik o‘tar dunyo uchun shunday donishmand va qari otasini shahid qildi, deydi. Bu voqeaning ta’rixlarida qayd etilganini she’riy parchalarda ko‘rsatib o‘tadi:

Ulug‘bek bahri ulumu xirad,

Ki dunyovu dinro az o’ bud pusht.

Zi Abbos shahdi shahodat chashid,

Shudash harfi ta’rix “Abbos kush”.

Ilm va aql dengizi deb ta’riflangan Mirzo Ulug‘bek, dunyo va dinning tayanchi sifatida ulug‘lanadi. Keltirilgan ta’rixda “Abbos kush” so‘zlarining abjad hisobi hijriy 853 (milodiy – 1449-1450)-yilga to‘g‘ri keladi. Shundan so‘ng Abdullatif mirzo Samarqand taxtini egallaydi. Bobur uning 5-6 oy saltanat qilganini, har qanday gunoh ishning javobi borligini ikki og‘iz so‘z bilan tilga olib ketadi.

Shu o‘rinda, Ulug‘bek mirzoning o‘limiga sababchi bo‘lgan shayx muammosiga to‘xtalib o‘tish zarurati mavjud. Sharqshunos olim Komilxon Kattayev “Xoja Ahroriy Valiy va Mirzo Ulug‘bek muammolari talqini” nomli tadqiqotida tarixiy manbalarga tayanib, ota-bola muammosiga bevosita ta’sir qilgan shaxs Xoja Ahror emas, balki Mavlono Nizomiddin Xomush ekanini asoslashga harakat qiladi. Nizomiddin Xomush bilan Ulug‘bek o‘rtasidagi kelishmovchilik Bog‘imaydon saroyida bo‘lib o‘tgan voqeadan boshlangan. Mavlono Isomiddinining ig‘volariga ishongan Ulug‘bek Nizomiddin Xomushni so‘roq qiladi. Ana shu noxush suhbat ikki shaxs o‘rtasida adovatni keltirib chiqaradi. Ulug‘bek va Abdullatif o‘rtasidagi nizolar aynan shu shaxs ta’sirida uyushtiriladi. Taxt uchun kurashayotgan Abdullatif harakatlarini Nizomiddin Xomush adovati tezlashtirgan edi.

I.Bo‘riyevning “Xoja Ahror Valiy va Mirzo Ulug‘bek to‘g‘ridagi ijtimoiy fikrlar masalasi” maqolasida Ulug‘bekning o‘ldirilishi bilan bog‘liq ijtimoiy muammolar tadqiq etiladi. Ma’lumki, Xoja Ahror Valiy Samarqandda diniy faoliyatdan tashqari, mamlakatning siyosiy va harbiy ishlarida ham bevosita ishtirok etib kelgan shaxsdir. U xalq manfaati yo‘lida xizmat qilgan ma’naviy pir darajasiga ko‘tarilgan. Xoja

Ahror Valiyning iltimosiga ko‘ra, Abu-said Mirzo xalqni “tamg‘a” solig‘idan ozod qilgan.

I.Bo‘riyevning fikricha, sho‘rolar davrida Xoja Ahror Valiy va Mirzo Ulug‘bek o‘rtasidagi munosabat noto‘g‘ri talqin qilingan. Xoja Ahror Valiy Ulug‘bekning shahid bo‘lishiga sababchi bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rsatib kelingan. Tarixiy manbalarda keltirilgan faktlar bu muammoni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, Sayfiddin Ali Safiyning “Rashohatu aynil hayot”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-sadayin va majma ul-Bahrayn” asarlarida yozilishicha, Mirzo Ulug‘bek va Xoja Ahror Valiy umuman uchrashishmagan. Ulug‘bek Xoja Ahror rasadxonaga kelishdan bir yil oldin shahid qilingan edi. Tarixiy faktlar shundan dalolat beradiki, Mirzo Ulug‘bek davlatni boshqarishda shayx va sayyidlarning qarashlarini hurmat qilgan, saltanat taraqqiyotida bu toifa kishilarining fatvolariga tayangan. Ulug‘bek saroyida barcha oliy diniy mansabdorlar, obro‘li ruhoniylar kengashib faoliyat olib borishgan. Jumladan, Samarqand shayxul islomi Mavlono Isomiddin, muhtasib Sayid Oshiq, Naqshbandiya tariqati piri Nizomiddin Xomush, Samarqand qozisi Shamsiddin Muhammad Miskin kabilar. Qolaversa, Mirzo Ulug‘bek faqat dunyoviy ilmlarnigina emas, diniy ilmlarni ham puxta egallagan podshoh edi.

Bobur bir qator shaxslarning biror muhim xususiyati yoki xislatini tasvirlash bilan kitobxonning ko‘z o‘ngida mazkur timsolni yaqqol gavdalantirishga erishadi. Muallif Mullozoda Mullo Usmon to‘g‘risida so‘zlab: “*Ulug‘bek mirzo zamonida o’n to’rt yoshida dars aytqon uchun, Mullo Modarzod derlar erkandurlar: ...Andin manquldur: der emish, kishi bir nimanikim eshitti, yana nechuk unuttur. Qaviy hofizasi bor ekan-dur*”, deydi [“Boburnoma”, 137-bet]. Ko‘rinadiki, Bobur tarixiy shaxslarga munosabatida o‘rni bilan Ulug‘bek davri haqida muhim qaydlarni berib o‘tgan. Mullo Usmon to‘g‘risidagi ma’lumotning o‘zida Ulug‘bek mirzo zamonidagi ta’limning o‘rni va shu sohada faoliyat olib borgan olimlar e’tirofi haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Bobur ko‘plab hukmdorlarning tug‘ilganidan to umrining oxirigacha bo‘lgan voqea-hodisalarni ma’lum tartibga solib bayon qiladi. Mirzo Ulug‘bek haqidagi ma’lumotlarga bunday yondashmasa-da, Samarqand tasviri va ta’rifida uning faoliyatini ma’lum ma’noda yoritishga erishgan. “Ziji Ko‘ragoniy”ni boshqa astronomik jadvallar bilan solishtirib, mukammalligini ta’kidlaydi. Ulug‘bekning ilm podshosi, din homiysi, donishmand kishi ekanini e’tirof etadi. “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar Ulug‘bekning ilm-fanga, ayniqsa, madrasalar ta’limiga yangi yondashuvlarni olib kirganini ko‘rsatadi.

Marg‘uba ABDULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI



I. "Teatr bezagi rangtasviri" kafedrası:

- dotsent;
- katta o'qituvchi;
- o'qituvchi.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy un-

- voni haqida diplom nusxalari;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;

– kataloglar.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut Kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.



Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, 255-98-39.

Kamalov Anvar Ibragimovichning 14.00.33 – Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo'yicha "Dalillarga asoslangan tibbiyotda akusherlik va perinatal yordamning yangi tashkiliy funksional modeli" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammu.uz

Agzamxodjayev Jamshid Baxadirovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Limonning(Citrus limon) yuqori hosilli, yirik mevali va eksportbop navlarini yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz ixtiro patenti asosidagi) himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.05.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 10-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b,
SPEvaKITI majlislar xonasi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Yoqubov Xisrav Tolib o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Nok(Pyrus communis L.) duragaylarini o'rganish asosida serhosil, yirik mevali, eksportbop navini yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz ixtiro patenti asosidagi) himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.05.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 10-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b,
SPEvaKITI majlislar xonasi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Saidov Akmal Abdullayevichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Polipragmaziya sharoitida taloq limfoid to'qimalarining morfometrik holatining o'zgarishi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-iyun kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Karabayeva Marjona Aminjonovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Temir tanqisligi anemiyasi bilan kasallangan tug'adigan ayollarda tug'ruq jarayoni buzilishining patogenetik asoslari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34, 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektori@sammu.uz

Isroilov Baxtiyor Abdullayevichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Takroriy ekin sifatida marjumakning maqbul ekish muddatlari, me'yori va usullarining hosildorlikka ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

Mustafoyeva Ozoda Ilashevnaning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "G'o'za va makkajo'xori dalalaridagi begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni qo'llashning samaradorligi(Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

Avaxonov Yusufjon Avaxon o'g'lining 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi(etika) ixtisosligi bo'yicha "Korporativ etika rivoji tendensiyalari va transformatsiyasi" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Burxonova Go'zal Muxammadiyevnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'zbek va rus tillarida agrar terminlarning o'zaro tarjimasi va leksikografik talqini" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "A" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumya1@exat.uz

Fayzullayev Komiljon Nabijonovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Me'yorda va eksperimental o'pka fibrozida prostata bezining morfometrik xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz



Teran tomirlar

“Temur tuzuklari”ni kim yozgan?


Ma'lumki, “Temur tuzuklari” asarini Sohibqiron Amir Temurga nisbat berishadi. Turli manbalarda bu asar “Temur tuzuklari”(“Tuzukoti Temuriy”), “Temurning aytganlari”(“Malfuzoti Temuriy”) va “Temur haqida xotiralar”(Voqeoti Temuriy”) degan nomlar bilan tilga olinadi. Kitobning so'zboshisida Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuklar”ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan dardli va iztirobli kechinmalar bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanini ma'rifatli, zukko kitobxon yaxshi anglaydi, albatta”.

Akademik Akmal Saidovning yozishicha, atoqli rus olimi D.Logofet “Temur tuzuklari”ni o'rganib, unga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan. Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni “Tuzuklar” deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas”. Ahmad Muhammad Tursunning “Dunyoni tebratgan yetti buyuk” kitobi iborasi bilan aytganda, “*Temurning jangovar ishlarda orttirgan ulkan tajribasi, harbiy yurishlar va harakatlar olib borishdagi o'ziga xos bo'lgan tadbir va yutuqlari Sohibqironning o'zi yozgan “Men – fotih Temur” hamda “Temur tuzuklari” kitoblarida batafsil vasf qilingan*”. “*Temur qissasi*”(“*Malfuzoti Temuriy*”) shu kungacha o'zbek tilida chop etilgan va ma'lum bo'lgan “*Temur tuzuklari*”ning dunyodagi eng to'liq nusxasidir. Ushbu kitobni o'qigan har bir kishi asarni Amir Temurning o'zi yozganiga ishonch hosil qiladi. Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning o'zi “*Qissayi Temur*” nomli qo'lyozma kitob boshida aytadiki, “Ikki sharif haram sohibi va Yaman hokimi Ja'far Bostoniyning kutubxonasida bir kitobga ko'zim tushdi, uni(o'qib) ko'rsam boshdan-oyoq hammasi Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning o'z so'zlaridan iborat ekan, yetti yoshidan yetmish to'rt yoshigacha boshdan kechirgan voqealarni yozibdi, ya'ni, qanday qilib o'zini sultonlik martabasiga yetkazgan va ne xosiyat birla yetti iqlim mamlakatlariga farmonravo bo'lgan. Uni boshdan-oyoq o'qib chiqsam, podshohlik qonuni va davlat tizimi, mulk olish qoidalari, askar va raiyat intizomi, mulk va mamlakatni boshqarish usuli, urush va saf tuzish qoidalarini o'z ichiga olgan ekan. Uni fors tiliga tarjima qilib, kitob holiga keltirdim, toki podshohlarga qo'llanma bo'lar, deb”.

Akademik Bo'riboy Ahmedov ta'biri bilan aytganda, “*Temur tuzuklari*” ko'proq sohibi tojlarga kerak bo'lgan. Shuning uchun ham hukmdorlarning ko'pchiligi bu va shunga o'xshash asarlardan nusxa ko'chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asragan va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida ulardan muhim yo'l-yo'riq sifatida foydalangan. Masalan, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shohi Jahon(1628–1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon(1821–1842) va Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxon(1885–1910) chapdast kotiblariga buyurib, “*Temur tuzuklari*”dan o'zlari uchun

nusxa ko'chirtirganlari ma'lum. Ko'chirganda ham zo'r mas'uliyat va qunt bilan ko'chirganlar. Hindistonlik muarrix Abdulhamid Lohuriyning(1654-y. vafot etgan) “Podshonoma”sida(Mavlaviy Kabiriddin Ahmad va Abdurahimlar amalga oshirgan nashr, Kalkutta, 1866–1872-yil, 1-jild, 288-sahifa) shunday gap bor: “Hijriy 1047(milodiy 1637-1638)-yili Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy degan shaxs Shohi Jahonga “Tuzuki Temuriy”ning forsiycha tarjimasini taqdim etgan. Podshoh tarjima bilan tanishib chiqib, uni Dekan favjdori(qozikaloni), iste'dodli adib Muhammad Afzal Buxoriyning qo'lga tutqazgan va Sharafuddin Ali Yazdiyning mashhur “Zafarnoma” asariga solishtirib va kamchiliklari bo'lsa, tuzatib, xattot va muarrixlar o'zidan qo'shgan ortiqcha joylari bo'lsa o'chirib tashlashni buyurgan. “*Temur tuzuklari*”ning shu kunlarga cha yetib kelgan qo'lyozma va toshbosma nusxalari o'sha Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy tarjimasida yaratilgan”.

Chunonchi, asar muallifi haqida turli fikrlar mavjud. “Tuzukoti Temuriy”ning muallifi kimligi masalasi turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. E.Braun, Ch.Ryo, V.Bartold kabi bir guruh olimlar asarni Amir Temur yozganligigagina emas, balki “Tuzukoti Temuriy” asarining haqiqiyligiga ham shubha bilan qaraydi. Sharq manbalarida, shuningdek, “Tuzukot”ning ko'pchilik nashrlarida asar muallifi Amir Temur ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, Shamsiddin Somiyning mashhur qomusida shunday deyilgan: “Amir Temur “Tuzukot” deb yuritiladigan qonunlar majmuasini yozdi, unda o'zining hayot yo'lini bayon qildi”(“Qomus ul-a'lon”, Istanbul, 1891, 1727-sahifa). Bu borada atoqli tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da quyidagi e'tiborga molik ma'lumotni keltirgan: “Onhazrat o'zining hayoti va turmushi tarziga doir asosiy voqealarni o'z ichiga olgan turkiy va forsiyda alohida bir manzuma tuzdilar”. Shuni ham ta'kidlash lozimki, taniqli sharqshunos M.Sharmua(1793–1869) va yirik rus harbiy tarixchisi M.I.Ivanin(1801–1874) “Tuzukot” haqiqiy asar va uning muallifi Amir Temur bo'lgani haqida fikr bildirgan edilar. “*Tuzukoti Temuriy*”ning haqiqiy asar ekanligini Amir Temurning hayoti va faoliyati to'la aksini topgan Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” asarlari bilan qiyoslash orqali ham bilib olish mumkin”. Binobarin, Ahmad Muhammad Tursunning “Dunyoni tebratgan yetti buyuk” asari tili bilan aytganda, “*Amir Temur hayotlik davri-*



dayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u “Temur tuzuklari” nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan, deb hisoblanadi”. Alloma Alixonto'ra Sog'unuy ham 1958-yili “*Temur tuzuklari*”ning forsiycha variantini o'zbek tiliga mukammal tarjima qilgan va bu asarni qat'iy ishonch bilan Amir Temur qalamiga mansub degan. Sog'unuy “*Temur tuzuklari*” tarjimonidan” nomli quyidagi she'rni yozib avlodlariga qoldirgan:

*Temurdek jahonda kishi o'tmadi,
Aningdek o'g'ilni ona tug'madi...
Yozib bu kitob ichra kechmishlarin,
Bayon aylamishdir qomus ishlarin.
“Temur tuzugi” deb atalmish erdi,
Aning so'zlarin turkcha yozmish erdi.
Biza yetmamishdir asl nusxasi,
Vale yetdi, forschasi, bosmasi.
Aniq bilmadim, kimdir olmish uni,
Qabul etdim, o'rniga oldim buni.
Tilin turkiy qildim, yuzin oqladim,
Vatan ahliga manguilik saqladim.
O'qir bo'lsalar bu kitob so'zlarin,
Gumondin chiqarg'usidir o'zlarin.
Temur kim edi deb gumon qilmag'ay,
Yomon-yaxshisin u o'qib anglag'ay.*

Muxtasar qilib aytganda, “*Temur tuzuklari*”ni o'qigan har bir kishi bu asarni buyuk Sohibqiron yozganligini his qiladi. Binobarin, Abdurauf Fitrat tili bilan aytganda, “Savdo sarmoyasi adabiyoti atalg'an bu adabiyotning birinchi asari Temurlangning o'ziga nisbat berilgan “Tuzuki Temur”dir. Temur xayol qilg'an edikim, uning bolalari tomonidan jahongirlik davom etdiriladi. Shuning uchun o'zining tajribalarini, tadbirlarini bir kitob shaklida yozib yoxud yozdirib bolalarig'a qoldirdi”.

Sherxon QORAYEV,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet dotsenti (PhD)

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6137. Tiraji 6440.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Ma'rifat”dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.